



Бош илмий-методик
марказ

FARG'ONA DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI



**“KORRUPSIYAGA QARSHI-KURASH-
FUQAROLIK JAMIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
SHARTI”
MODULI BO‘YICHA
O‘QUV –USLUBIY MAJMUA**

**Q.Sulaymonov FarDU,
Fuqarolik jamiyat kafedrasi
dotsenti, t.f.n.**

2022

Modulning ishchi dasturi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan oʻquv dasturi va oʻquv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan va FarDU Ilmiy kengashining 2021 yil «30» dekabrda 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **Q.Sulaymonov FarDU, Fuqarolik jamiyat kafedrasida dotsenti, t.f.n.**

Taqrizchilar: **A.Tashanov- Xalqaro Islom akademiyasi dotsenti, s.f.b.f.d. (PhD)**
B.Tolipov - Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAL TA‘LIM METODLARI.....	16
III. NAZARIY MA‘LUMOTLAR.....	29
IV. AMALIY MA‘LUMOTLAR.....	74
V. KEYSLAR BANKI	94
VI. GLOSSARIY.....	95
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	99

I.ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

O‘zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlari, zamonaviy konsepsiyalarini, tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, fuqarolik jamiyatining bu ijobiy jihatlari (tamoyillari va belgilarini) sinalgan tajriba sifatida o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e‘tiborga olishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati fanini oliy ta’lim tizimida o‘qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda **“Korrupsiyaga qarshi kurash - fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti”** moduli aynan Oliy ta’lim tizimida “Fuqarolik jamiyati”, “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” “Milliy g‘oya. Fuqarolik jamiyati” fanlaridan dars beradigan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga muljallangan.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Korrupsiyaga qarshi kurash - fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi mutaxassislik fanlari blokidagi asosiy modullardan biri

bo‘lib, unda fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiyalar, erishilgan yutuqlar, istiqboldagi vazifalarni, “**Harkatlar strategiyasi**” asosiy yo‘nalishlarining mazmun-mohiyatini tahlil qilish va uni o‘qitish sohasidagi tajribalarni umumlashtirish, mavjud muammolar, ularning echimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilgan.

Modulning vazifalari:

- Zamonaviy talablarga mos holda oliy ta‘limning sifatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik
- Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oya, nazariy, yondoshuv va zamonaviy konsepsiyalarining, asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida tushunchalar berish;
- oliy ta‘lim muassalari pedagog kadrlarini Fuqarolik jamiyati qurish sohasidagi yangi g‘oya, yondoshuvlar va erishilgan yangiliklar bilan tanishtirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Korrupsiyaga qarshi kurash - fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

Tinglovchi:

- fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oya va nazariyalar evolyusisining asosiy yo‘nalishlarini, korrupsiya tushunchasini
- fuqarolik jamiyati zamonaviy konsepsiyalarining mazmun mohiyatini;
- O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakillnaishi va rivojlanishi bo‘yicha jahon xamjamiyatidagi erishilgan yutuqlarni;
- yangi innovatsion, pedagogik texnologiyalarni va ularning xalqaro qiyosiy tahlilini;
- O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati sohasiga oid yangi nazariy qarashlar va konsepsiyalarni, ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishni;
- O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati sohasiga oid nazariy va amaliy masalalarini echishi, yangi texnologiyalarni va dasturlar paketlarini qo‘llashni;
- o‘tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo‘yicha modellar, algoritmlar, metodlar tadqiqot qilishi va ishlab chiqishni *bilishi zarur*;

Tinglovchi:

- o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini egallash;
- yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
- fuqarolik jamiyati sohasida axborot texnologiyalari yordamida mustaqil ravishda

yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashi hamda ulardan amaliy foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lish;

- yangi g'oyalarni yaratish va ilmiy-tadqiqot ishlarini mustaqil olib borish qobiliyatiga hamda ilmiy jamoada ishlash ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:***

Tinglovchi:

- tinglovchilarni o'ziga jalb qilgan xolda yangi pedagogik texnologiyalar asosida fanni tushuntirish;

- fuqarolik jamiyatini qurish sohasi bo'yicha faoliyatning ilmiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida faol ishtirok etish;

- soha bo'yicha jahon tajribalarini tahlil qilish uchun xorijiy tillardan birida erkin so'zlashuv ***malakalarga ega bo'lishi kerak:***

Tinglovchi:

- zamonaviy va innovatsion ta'lim muhitini boshqarish;

- fuqarolik jamiyati bo'yicha zamonaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

- fuqarolik jamiyati sohasi bo'yicha tinglovchilarning izlanishli-ijodiy faoliyatga jalb etish ***kompetensiyalarni egallashi lozim.***

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Korrupsiyaga qarshi kurash -fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” moduli materiallari bilan kurs tinglovchilarini tanishtirish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limining zamonaviy usullari, kompyuter texnologiyalari, internet tarmog'idan olingan yangiliklarni qo'llash usulidan foydalaniladi. Ma'ruza darslarida prezentatsiya usulida, amaliy mashg'ulotlarda aqliy xujum, Xulosalash metodi, SWOT tahlili kabi usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda sohadagi yangiliklar bilan tanishish, ulardan ta'lim muassasasida mutaxassislarga bilim berishda foydalanish ko'zda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Korrupsiyaga qarshi kurash - fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” moduli o'quv rejadagi birinchi blok va mutaxassislik fanlarining barcha sohalarini bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunda modulning bakalavr bosqichi 1 blok fanlarining bog'liqligi e'tiborga olinadi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

“Korrupsiyaga qarshi kurash - fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg'or tajriba va yangiliklarni o'rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat						
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi					Mustaqil ta'lim
			jami	jumladan				
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot		
1.	Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar	4	4	2	2			
2.	O'zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo'shilishi. O'zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar	4	4	2	2			
3.	Korrupsiyaga qarshi kurash sub'ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari	8	8	4	4			
4.	“O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari	6	6	4	2			
5.	O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati	4	4	2	2			
Jami:		26	26	14	12			

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar

Reja:

1. Korrupsiya tushuncha va uning mazmun-mohiyati. Insoniyat rivojlanishining tarixiy bosqichlarida korrupsiya ko‘rinishlari va unga qarshi kurashish yo‘llari.

2. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan huquqiy va normativ-meyoriy xujjatlar. Jaxonda korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy, huquqiy va amaliy asoslari. Rivojlangan mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi va yutuqlari.

3. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda yuzaga keladigan muammolar. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunlarning xalqaro normalar bilan muvofiqligi. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik. asoslari

2-MAVZU: O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar

Reja:

1. “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ning mazmun-mohiyati va boshqa halqaro huquqiy-normativ xujjatlar. O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi.

2. Mamlakatimiz milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashish fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlari. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorining mazmuni va ularda belgilangan ustuvor vazifalar, hamda yo‘nalishlar.

3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar: yutuq va kamchiliklar.

3-MAVZU: Korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari

Reja:

1. O‘zbekistondakorrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari. Korrupsiyaga qarshi kurash idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.

2. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va ularning huquqiy-siyosiy faolligini oshirish. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolik jamiyati institutlarining vazifasi va ularning faolligini oshirish mexanizmlari.

3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishda korrupsiyaga qarshi kurashishning zarurligi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yuksaltirishda korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati.

4-MAVZU: “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari

Reja:

1. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi davrida korrupsiyaga qarshish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar. Yangi taraqqiyot bosqichida mamalakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

2. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoning mazmun-mohiyati va undan kelib chiqadigan vazifalar.

3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va istiqbolli rejalarning ishlab chiqilishi.

5-MAVZU: O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati

Reja:

1. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan ishlar. Yangi taraqqiyot bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashishning o‘ziga xosligi va natijalari.

2. Fuqarolik jamiyati va adolatli jamiyat qurishda korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy mezon sifatida.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish - huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor vazifasi sifatida. Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolarda huquqiy madaniyatni oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar

Korrupsiya tushuncha va uning mazmun-mohiyati. Insoniyat rivojlanishining tarixiy bosqichlarida korrupsiya ko‘rinishlari va unga qarshi kurashish yo‘llari. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan huquqiy va normativ-meyoriy xujjatlar. Jaxonda korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy, huquqiy va amaliy asoslari. Rivojlangan mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi va yutuqlari. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda yuzaga keladigan muammolar. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunlarning xalqaro normalar bilan muvofiqligi. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik asoslari

2-MAVZU: O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar

“Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ning mazmun-mohiyati va boshqa halqaro huquqiy-normativ xujjatlar. O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi. Mamlakatimiz milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashish fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlari. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorining mazmuni va ularda belgilangan ustuvor vazifalar, hamda yo‘nalishlar. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar: yutuq va kamchiliklar.

3-MAVZU: Korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari. Korrupsiyaga qarshi kurash idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va ularning huquqiy-siyosiy faolligini oshirish. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolik jamiyati institutlarining vazifasi va ularning faolligini oshirish mexanizmlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishda korrupsiyaga qarshi kurashishning zarurligi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yuksaltirishda korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati.

4-MAVZU: “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari

O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi davrida korrupsiyaga qarshish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar. Yangi taraqqiyot bosqichida mamalakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoning mazmun-mohiyati va undan kelib chiqadigan vazifalar. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va istiqbolli rejalarning ishlab chiqilishi.

5-MAVZU: O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati

O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan ishlar. Yangi taraqqiyot bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashishning o‘ziga xosligi va natijalari. Fuqarolik jamiyati va adolatli jamiyat qurishda korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy mezon sifatida. Korrupsiyaga qarshi kurashish - huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor vazifasi sifatida. Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolarda huquqiy madaniyatni oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida.

MUSTAQIL TA’LIM

Tinglovchi mustaqil ishni modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- o‘quv, ilmiy adabiyotlardan va me‘yoriy xujjatlardan foydalanish asosida modul mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma‘ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha modul bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan modul bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- fanga oid statistik ma‘lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

18. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.

19. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.

20. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.

21. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.

22. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.

23. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

24. Belogurov A.YU. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

25. Boris Kapustin Grajdanstvo i grajdanskoe obshchestvo. — M.: “Vysshaya shkola ekonomiki”. 2011. — 224 s.

26. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. — Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

27. D.Dj.Grin Vozvrasheniye v grajdanskoe obshchestvo: sotsialnoe obespecheniye bez uchastiya gosudarstva. — M.: “Novoe izdatelstvo”. 2008, — 220 s.

28. Djim L. Koen, Endryu Arato Grajdanskoe obshchestvo i politicheskaya teoriya. — M.: “Ves mir”, 2011. — 784 s.

29. Djon Kin Demokratiya i grajdanskoe obshchestvo. — M.: “Progress - Traditsiya”, 2001. — 400 s.

30. J.Mavlonov Kommunikativnye osnovy deyatelnosti institutov grajdanskogo obshchestva: tendensii i innovatsii (Monografiya) - T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. 12 b.t.

31. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. — T.: Baktriya press,

2015.

32. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.E.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

33. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

34. Li Kan YU Iz tretogo mira - v pervyyu. Istoriya Singapura. 1965-2000. – M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2016. – 420 s.

35. M.Bekmurodov va boshq. Xarakterlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T.: “G‘ofur G‘ulom NMIU”. 2017, - 236 b.

36. Moxammad Xotami Islam, dialog i grajdanskoe obshchestvo. – M.: “ROSSPEN”. 2001. – 242 s.

37. Mualliflar jamoasi. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.

38. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

39. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. YU. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO «UrFU im. pervogo Prezidenta Rossii B.N.Elsina», Nijnetagil. texnol. in-t (fil.). – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

40. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

41. R.Xasanov, A.O‘tamurodov Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (O‘quv qo‘llanma) – T.: 2016. 14 b.t.

42. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.YU. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

43. Трудным путем демократии: Протсесс государственного управления в США (Перевод с англ. А.Н.Кулик). – М.: “ROSSPEN”, 2006. – 656 s.

44. U.Bo‘taev Jamiyat barqarorligi: O‘zbekiston tajribasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2017. 11.9 b.t.

45. Uil Kimlika Sovremennaya politicheskaya filosofiya. Vvedenie. – M.: “Vysshaya shkola ekonomiki”, 2013. – 585 s.

46. Usmonov B.SH., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.

47. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Universitet”, 2018. 21 b.t.

48. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va

atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. – T.: “Turon-Zamin-Ziyo”. 2017. 23 b.t.

49. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati: G‘oyalar evolyusiyasi (SHarq va G‘arb mutafakkirlari talqinida). Lotin yozuvida. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 96 b.

50. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.

51. Hakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strany. Grajdanskoe obshchestvo (Uchebnoe posobie) - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.

IV. Internet saytlar

52. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.

53. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

54. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)

55. Открытое образование. <https://openedu.ru/>

56. <https://foxford.ru/wiki/obshchestvoznaniye/grazhdanskoe-obshchestvo>

57. <https://www.linguee.com/russian-english/translation>

58. https://enc.for.uz/w/index.php?title=Fuqarolik_jamiyati&variant=uz-cyrl

59. <http://www.uzbekembassy.ir/Development.aspx>

60. <https://icscentre.org/tag/civil-society/>

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. «Bahslashuv» texnologiyasi

Tinglovchilarning o‘quv guruhlarida ularning o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshilash, bir-birlariga tezlik bilan ko‘nikishlari yoki o‘zaro bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishlari uchun ba’zida ular o‘rtasida bahslar tashkil etib turish maqsadga muvofikdir. Chunki bunday bahslar talaba (yoki o‘quvchi)larni o‘z fikrlarini charxlab olishga, hayotga va turli muammolarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlab olishga katta yordam beradi. Bahs mavzularini talaba (yoki o‘quvchi)larning o‘zlari tanlashlari va taklif etishlari mumkin. Bu mavzular ularni bahsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo‘lishi kerak, aks holda bahs davomida talaba (yoki o‘quvchi)lar o‘z fikrlarini bayon eta olmaydilar yoki bahsga ko‘shilib o‘z fikrlarini isbotlab, himoya qila olmaydilar. Bahslar talaba (yoki o‘quvchi)larni ba’zi yangilash fikrlarga qarshi kurashishga o‘rgatadi, atrofdagi bo‘layotgan voqealarni tushungan holda to‘g‘ri sharhlashga, o‘z holatlarida turishga, no‘rin fikrlarga o‘z vaqtida qarshilik ko‘rsatishga hamda har bir fikrni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda o‘rtoqlari bilan suhbat qilish, bahslashish, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish, ta’sir eta olish madaniyatiga o‘rgatadi. Baqslarni samarali o‘tishi, albatta, ularning oldindan qanday tayyorlanganligiga bog‘liq. Biz quyida bahslarga tayyorgarlik ko‘rishda nimalarga e’tibor qaratish kerakligini ba’zi bir bosqichlarini ajratib ko‘rsatmoqchimiz:

- bahs mavzusini tanlash va uni tasdiqlab olish;
- tarbiyaviy vazifalarni aniqlab olish;
- oldindan bahs mavzusini e’lon qilish va bahs davomida muhokama qilinadigan savollarni belgilab qo‘yish;
- talabalarni bahs davomida muhokama qiladigan savollarini to‘larok yoritishga yordam beradigan qo‘shimcha materiallarni to‘plash;
- bahsni o‘tkazish uchun mas’ul va boshlovchilarni tayinlash;
- bahs o‘tkaziladigan joyni jihozlash;
- bahslashish qoidalarini rangli, ko‘rgazmali etib tayyorlash.

Bahs qatnashchilari bahsni o‘tkazish va unda o‘zlarini tuta bilish, boshqara olish to‘g‘risidagi qoidalar bilan oldindan yoki bahs mobaynida tanishib olishlari kerak. Ular qo‘yidagicha bo‘lishi mumkin:

- bahslashishdan oldin, avval nima demoqchi bo‘lganingni yaxshilab o‘ylab olish;
- gapirayotganingda fikrlarni aniq, sodda, mantiqan va ketma-ketlik bilan

bayon qilish;

- faqat hayajonga solayotgan, ishonchi komil bo'lgan fikrlarni bayon etishga harakat qilish, bilmagan, ishonmagan fikrlar bilan bahslashmaslik;

- kimningdir fikriga ko'shilmasa, uni fikrini masharalamay, uning ustidan kulmay, xatosini aytmay xaqgo'ylik bilan bahslashish;

- aytilgan fikrlarni ikkinchi bor qaytarmasdan, yangi fikr bo'lsagina o'sha fikrni bayon etish;

- bahslashuv vaqtida qo'llarni har tomonga o'ynatmasdan, ovozni balandlatmasdan, baqirmasdan gapirish. Agar boshqalarni o'z fikringga ishontirmoqchi bo'lsang, ularni sening fikringga qo'shilishlarini istasang, unda sen o'z fikringning isbotiga, albatta, aniq dalillar, misollar keltirish;

- bahslashayotgan suhbatdoshni hurmat qilish, uni xafa kilmaslik, uning shaxsiga tegadigan gaplarni, qiliqlarni qilmaslikka harakat qilish. Agar shunday qilinsa, faqat bahslashuvda kuchli ekanligingni ko'rsatibgina qolmay, balki bahslashuv borasida qanday madaniyatga ega ekanligini ham ko'rsatgan bo'ladi.

YUqorida qo'rsatilgan qoidalar chiroyli rangli qilib bezatilgan holda o'zoqdan ko'rinadigan qilib yozilib bahs o'tadigan joyga oldindan ilib ko'yiladi yoki shunga o'xshash qoidalarni bahsni boshlashdan oldin bahs ishtirokchilari bilan birgalikda ularning bergan takliflari asosida to'zib, shu erning o'zvda qog'ozga (xona taxtasiga, biron taxtaga) yozib qo'yish mumkin.

Bahs o'tayotgan joyni jihazlash va bezashda buyuk pedagog olimlar, mutafakkir va donishmandlar fikrlarini yozib ko'rinarli joyga ilib kuyish mumkin.

Masapan:

«Qoidani unutma:

Ma'nodan o'zoq ketma

Gapni cho'zma oz gapir

Keng ma'noli sozgapir».

Baxsda muxoqama qilinadigan savollar, muammolar talaba (yoki o'quvchi)larni hayajonlantiradigan, kuyuntiradigan, zamonaviy, ularning hayot tarziga tegishli bo'lgani ma'qul. SHunda, ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarida va boshqa joylarda gapirishdan qo'rqadigan, uyaladigan talaba (yoki o'quvchi)lar mana shunday bahslar davomida bemalol o'z fikrlarini bayon eta olishlari mumkin.

Ta'lim muassasalarida kechki payt o'qishdan bo'sh vaqtlarda yotoqxonadagi «Ma'naviyat va ma'rifat» xonasida, yoki biron kichik talaba (yoki o'quvchi)lar choyxonasida, qolaversa, agar imkoni bo'lsa gulxan atrofida ham bahslar o'tkazsa bo'ladi. Ochik tabiat qo'ynida gulxan atrofidagi davralarda talaba (yoki o'quvchi)larning erkin holdagi bahslari qiziqarliroq, hamda ishonchliroq o'tadi. Bunday paytlarda talaba (yoki o'quvchi)lar o'zlarini juda erkin his etadilar va o'z

fikrlarini bemalol tortinmasdan, qiynalmasdan ayta oladilar. Bunday gulxan atrofidagi bahslarni bir necha guruhlar bilan o'tkazish mumkin.

O'tkaziladigan bahslarning mavzularini to'zishga talaba (yoki o'quvchi)larning o'zlari, ularning hayotiy tajriba (yoki yoshlar xayotidagi muammolar, turli bolalar va yoshlar xaqidagi asarlar, gazeta va jurnallardagi maqola)lari yordam berishi mumkin. Biz quyida bahslar uchun ba'zi bir mavzularni e'tiboringizga havola etamiz:

- Hozirgi zamon komil insoni deb kimni aytsa bo'ladi?
- Madaniyatli inson deb kimni aytsa bo'ladi?
- Sen qanday yashayapsan? Hayoting qiziqarlimi?
- Haqiqiy do'st qanday bo'lishi kerak?
- Mening harakterim shunday...
- Beparvolik qaerdan kelib chiqadi?
- Moda va men.
- Bepul narsaning bahosi qancha?
- Nima savob-u, nima gunoh?
- va boshqalar.

Bahslarni o'tkazish uchun talaba (yoki o'quvchi)lardan bitta yoki ikkita bahs boshqaruvchisi belgilanadi, ular bahsni muhokama qilinishi kerak bo'lgan mavzu haqidagi kirish so'zi bilan boshlaydilar. Bahs davomida esa boshqaruvchilar bahslashuvchilar, so'zga chiquvchilarning bildirayotgan fikrlarini diqqat bilan eshitib, fikrlar to'qnashuvini o'z vaqtida ochib boradilar hamda umumiy xulosa qilishga harakat qiladilar. Bahsni olib boruvchilarni tanlash va ularni tayyorlashda o'qituvchi (murabbiy)larning xizmatlari katta. Bahsni talaba (yoki o'quvchi)lardan tanlangan boshqaruvchilar olib borsada, lekin o'qituvchi (murabbiy)lar bahs davomida ularga yordam berishga tayyor turishlari kerak, chunki baxr davomida turli vaziyatlar, qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Odatda bahslar o'qituvchilar tomonidan muhokama etilgan yoki echilgan muammolarni umumlashtirish hamda biror kerakli tavsiyalar berish va kelgusida o'tkaziladigan bahslar mavzusini aniqlash bilan tugallanadi.

Ba'zi bir mavzudagi bahslarni o'tkazish uchun taxminiy savollarni keltiramiz:

Mavzu: Madaniyatli inson deb kimni aytsa bo'ladi?

Savollar:

- Inson madaniyati nimalardan tashkil topadi?
- Madaniyatli insonga tegishli quyidagi fazilatlardan qaysi birini birinchi o'ringa qo'ygan bo'ladingiz (xushmuomalalik, topqirlik, ma'lu-motlilik, notiqlik)?
- Barcha ma'lumotli insonlarni madaniyatli deb atasa bo'ladimi?

• Insonlarning soʻzlashuvi, nutqiga qarab, ularning madaniyatli ekanliklarini aniqlasa boʻladimi?

- Madaniyatli boʻlish uchun nima qilish kerak?
- Kimlarni madaniyatli desa boʻladi?
- Sen oʻzingni madaniyatli hisoblaysanmi?

Mavzu: Mening harakterim shunday...

Savollar:

- Harakterli va haraktersiz - nima degani?
- Nima uchun harakterni tarbiyalash kerak? Umuman tarbiyalash kerakmi?
- Harakterni toʻzatsa boʻladimi? Buning uchun nima qilish kerak?
- Inson harakteriga u yashayotgan, oʻqiyotgan jamoaning taʼsiri boʻlishi mumkinmi? Boʻlsa qanday?

• «YAxshi», «yomon» harakter. Buni sen qanday tushunasan?

Mavzu: Bepul narsaning bahosi qancha?

Savollar:

1. «Bepul narsa», sen bu iborani qanday tushunasan?

2. Sen uchun bepul boʻlgan narsalarning baxosi bormi? Bor boʻlsa qanday? Misollar keltir (oʻqish joyingdan, uydan va boshqalardan).

3. Bepul narsani asrash - avaylash kerakmi? Nima uchun?

4. Nima koʻproq bepul hisoblanadi «Meniki»mi yoki «Bizniki»?

5. Sen oʻqiyotgan oʻquv dargohi oʻz bahosiga egami? Sening fikringcha u qancha turadi? Bu erda sen bepul foydalanayotgan narsalar: sport jihozlari, kutubxona, kompyuterlar oʻz qiymatiga egami?

6. Agar hamma sen uchun yaratilgan sharoitdagi bepul narsalar oʻz qiymatiga ega boʻlsa, sen ularni qaqday asragan boʻlarding?

2.Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi.

Metodning maksadi: Bu metod murakkab, koʻptarmokli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni oʻrganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari boʻyicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari boʻyicha oʻrganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffakiyatli rivojlantirishga hamda oʻquvchilarning mustaqil gʻoyalari, fikrlarini yozma va ogʻzaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Hulosalash” metodidan maʼruza mashgʻulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashgʻulotlarida kichik guruxlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustaxkamlash, tahlil qilish

va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Namuna

Differensial, integratsion, masofaviy ta'lim					
Differensial t.		Integratsion ta'lim		masofaviy ta'lim	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

3.FSMU texnologiyasi

Texnologiyaning harakteristikasi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. CHunki bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baqslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarni aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir talaba (yoki o'quvchi)ga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu erda:

- F — fikringizni bayon eting;
- S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- M — ko'rsatgan sababingizni asoslovchi dalil keltiring;
- U — fikringizni umumlashtiring.

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)lar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

- yakka tartibdagi ish tugagach, talaba (yoki o'quvchi)lar kichik guruhlariga ajratiladi va kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi kog'ozlarni tarqatadi;

- kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;
- o'qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida ximoya qilishlarini so'raydi;
- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

Vazifa. Pedagogik texnologiya o'zini oqlaydi!» mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting:

- (F) - fikringizni bayon eting;
- (S) - fikringiz sababiga biron sabab ko'rsating;
- (M)- ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;
- (U) - fikringizni umumlashtiring.

4.Rolli-ishchan o'yin «konsensus i konfrontatsiya» («Kelishuv va ziddiyat»)

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larda mantiqiy va tanqidiy fikrlash hamda murosaga kelish mahoratini shakllantirish va bolalar hukuqlari muammolari bilan bog'lik bo'lgan tushunchalarini aniqlash.

Mashg'ulotni o'tkazish ketma-ketligi:

1. O'yinni boshlash.

Mazkur bosqichning vazifasi: u yoki bu fikrni to'g'ri ekanligini isbotlash orqali opponentlarni o'z tomoniga og'dirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Talaba (yoki o'quvchi)larga birin-ketin tasdiqlovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar ko'rsatiladi. Ularga tarqatma materiallarda berilgan fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslik taklif qilinadi. Tarqatma materiallardagi fikrlarni qabul qilgan talaba (yoki o'quvchi)lar bir tomondan, qolganlari ikkinchi tomondan joy egallaydilar. SHunday qilib guruh 2 ta kichik guruhlariga ajraladilar. Ulardan biri tasdiqlangan fikrni qabul qiladi va uning to'g'riligini nsbotlaydi, boshqa guruh opponent bo'ladi. Guruhlarning vazifalari - o'z guruhlariga boshqa guruh azolarndan ko'proq kishini jalb qilish, ya'ni ularniig o'z fikrlarini o'zgartirishga olib kelishdan iboratdir. Har bir tasdiqlangan fikr ustida 5 daqiqa ishlanadi.

Tarqatma materialdagi tasdiqlangan fikrlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- bolalar hukuqlari hech qachon etarlicha himoya qilinmaydi;
- o'zining hukuqlarini bilish va uni himoya qilish sharaflı ishdir;
- «Bolalar shaxsiy hayot kechirish hukuqiga egadirlar» bu haqiqatni kattalar hech qachon qabul qilolmaydilar;

- o‘z huquqlarini himoya qila turib, ba’zida o‘zaro ziddiyatlarga ham borishiga to‘g‘ri keladi;
- o‘z huquqlarimni himoya qila olaman, turli uslublarni ma’qullay olaman;
- har bir bola uchun o‘z hukuqlarini bilish o‘ta muqimdir;
- ma’suliyat haqida esa bolaga kattalar eslatib turishadi;
- hamma vaqt mening huquqlarim boshqalar huquklarini chegaralab turadi;
- xuquq doimo javobgarlikni sezishni taqozo etadi;
- bolalar huquqlarini faqat kattalar himoya qila oladilar;
- har bir inson o‘z qarashlarini o‘zgartirish xukuqiga ega;
- kattalar xuquqlari bolalarning huquklarini chegaralaydi;
- kuchli odam hamisha hakdir;
- erkaklar va ayollar hech qachon teng bo‘lmaydilar.

2. Tahlil:

Mazkur bosqichning vazifasi: o‘yinni o‘tkazish vaqtida o‘z holatini tahlil qila olish va quyidagi savollarga javob berish:

- O‘yin shartlarini bajarish qiyin bo‘ldimi?
- Mazkur ishni bajarish vaqtida nimalarni his etdingiz?
- Bahs - munozara natijasidan qoniqdingizmi?
- Natijaga erishishingizda Sizga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?

Bu faoliyat hamkorlikda o‘tishi, ko‘tarinkilik ruhida bo‘lishi, suhbatdosh charchamasligi va yaxshi natija bilan tugashi kerak.

Baxs-munozaralarning natijasini albatta tahlil qilish va baholash kerak. Uning muvaffaqiyati: *birinchidan*, guruhlar va ularning ishtirokchi (hamkor)larini bir-birlariga o‘zlarining vaziyatlari va holatlarini tushuntirib yangi axborotlar olishlariga, *ikkinchidan*, o‘zaro munosabat vaqtidagi ziddiyat (yoki salbiy holat)ni bir qismini yo‘q qilinishiga erishishlariga, *uchinchidan*, qo‘yilgan muammoni echib o‘zaro bir-birlarini tushunishlariga bog‘liq.

3. Murosaga kelishishning kichik guruhda (juftlikda) tashkil etilishi.

Mazkur bosqichning vazifasi: ikki opponent o‘rtasidagi u yoki bu narsani tasdiqlanish roziligiga erishish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Talaba (yoki o‘quvchi)larga biron-bir tasdikdangan fikrni tanlash taklif etiladi. Bu birgalikdagi ish quyidagi ko‘rinishda: bir kishi tasdiklovchi -ikkinchi kishi inkor etuvchi bo‘ladi. Bu faoliyat yakunida ma’lum bir juftlik-lar aniqlanadi (yoki uch qatnashchi agar kichik guruhda uch kishi bo‘lsa). 10 daqiqa mobaynida konstruktiv bahs-munozara ko‘nikmasi yordamida murosaga (konsensus)ga erishish kerak.

Muhokama qilish uchun tahminiy savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Sizga o'yin shartlarini bajarish qiyin bo'lmadimi?
- O'yin davomida Siz nimalarni xis etdingiz?
- Bahs - munozara natijasidan koniqdingizmi?
- Natijaga erishishda Sizga nima yordam berdi va nima halaqit berdi?

Mashg'ulot ohirida o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatlariga baho beradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

5. «Tushunchalar tahlili» uslubi

Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o'tilgan (chorak, semestr yoki yilida tugagan) o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularini talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yodga olish, biron - bir mavzu bo'yicha o'qituvchi», tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o'quvchi)larni baholay olishga-yo'naltirilgan.

Uslubning maqsadi. Talaba (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan karash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish.

Uslubning qo'llanishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talaba (yoki o'quvchi)larning-bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruch hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining ko'rgan maqsadi (tekshirshi, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangai bo' guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgtangan bo'lsa, holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talaba (yoki o'quvchi)larni guruhlariga (sharoitga karab) ajratadi;
- talaba (yoki o'quvchi)lar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- talaba (yoki o'quvchi)lar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- talaba (yoki o'quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;
- har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Izoh: «Tushunchalar tahlili» uslubini «CHaynvord», «O'zluksiz zanjir», «Klaster», «Blits-zanjir» shaklida ham tashkil etish mumkin.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha talaba (yoki o'quvchi)larning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egalaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Quyidagi mashg'ulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz (ilova).

Ilova

Tushunchalar	Mazmuni
Ta'lim	
Tarbiya	
Ta'lim mazmuni	
O'qitish uslublari	
O'qitish shakllari	
Dars (o'quv mashg'ulot)	
O'qitish vositalari	
Nazorat uolublari	
Baholash uslublari	

Texnologiya	
Pedagogik texnologiya	
Pedagogik innovatsiya	
Pedagogik mahorat	
Pedagogik kvalimetriya	

6. Ikki qismli kundaliklar

Ikki qismli kundaliklar o'quvchilarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilar qandaydir adabiyotlarni o'quv auditoriyasidan tashdari o'qib chiqish topshirigini olishganida ikki qismli kundaliklar foydalidir.

Ikki qismli kundalik uchun o'quvchilar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Qog'ozning chap tomoniga matnning darsi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Extimol, u qandaydir xotirani uyg'otar yoki xayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. YOxud ularning qalbida keskin norozilik xissini uyg'otar. O'ng tomonida ular sharx berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uygotdi? SHu munosabat bilan ularda qanday savol tug'ildi? Qisqasi, matnni o'qirgan, o'quvchilar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib borishlari kerak.

Quyida ana shunday ikki qismli kundalikka misol keltiramiz:

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi	
Yaponiyada "Dzyuku" to'ldiruvchi maktablari	
Janubiy Koreyada chet tilini o'rgatuvchi qo'shimcha maktablar	
Germaniyada boshlang'ich ta'lim xususiyatlari	
Fransiyada o'rta ta'lim: kollejlar va litseylar	

II.NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar

Reja:

1. Korrupsiya tushuncha va uning mazmun-mohiyati. Insoniyat rivojlanishining tarixiy bosqichlarida korrupsiya ko‘rinishlari va unga qarshi kurashish yo‘llari.

2. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan huquqiy va normativ-meyoriy xujjatlar. Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy, huquqiy va amaliy asoslari. Rivojlangan mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi va yutuqlari.

3. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda yuzaga keladigan muammolar. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunlarning xalqaro normalar bilan muvofiqligi. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik asoslari

Xar qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy xayotiga xavf soladigan, qolaversa, mamlakat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan illat korrupsiyadir. Korrupsiya ko‘p o‘lchamli, tashqi va ichki sharoitga qarab tez o‘zgaruvchadir. SHu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha innovatsion yondashuvlarning rivojlanishini o‘rganib borish ushbu sohaga qarshi kurashda juda muhimdir. SHu bois, tadqiqot jarayonining ilk bosqichida korrupsiya muammosining tushunchasi va unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini aniqlashga hamda tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Xozirda korrupsiya tushunchasining umume’tirof etilgan yagona ta’rifi mavjud bo‘lmasada, uning mohiyatini yoritish bo‘yicha bir qancha tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Korrupsiya davlat boshqaruvida tizimli xavf xarakteriga ega hisoblanib, jamiyatda demokratiya va qonun ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, xayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga taxdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, xufiyona idtisodiyot va boshqa shu kabi salbiy xodisalarning yuzaga kelishiga sharoit yaratib beradi. SHu bilan birga aholi o‘rtasida davlat xokimiyatiga bo‘lgan ishonchni yuqolishiga va obro‘sizlanishiga sabab bo‘ladi. Korrupsiya - mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat turi bo‘lib, xufiyona iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biridir. Ko‘pgina hollarda korrupsiya deganda - davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab, boylik orttirish maqsadida o‘z mansab mavqeidan foydalanish, fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo‘lga kiritish tushunilib kelinadi.

“Korrupsiya” soʻzining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, ushbu termin lotincha “corruptio” soʻzidan olingan boʻlib, pora evaziga ogʻdirib olish, poraga sotilish, aynish kabi maʼnolarni anglatadi. Oʻzbekiston yuridik ensiklopediyasida berilgan taʼrifga koʻra, korrupsiya (lotincha “corruptio” - aynish, poraga sotilish) bu - siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli xodisa, davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega boʻlgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda oʻz maqomi va u bilan bogʻliq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishdir.¹ Korrupsiya va unga qarshi kurashishni tadqiq etishda tadqiqotchilar ushbu tushunchalarning mazmunini ochib berishda turlicha yondashishgan. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirgan: “Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoyiy toʻzilmalarga madadkor bulish yoki toʻgʻridan-toʻgʻri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishdir. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urugʻ-aymoqlarining manfaatlarini davlat (umumxalq) manfaatlaridan ustun qoʻyadi”^{3 4} . Italiyalik politolog va davlat arbobi N.Makiavelli korrupsiyaga ommaviy imkoniyatlardan shaxsiy manfaatlar yoʻlida foydalanish deb taʼrif bergan⁵ . Koʻpincha korrupsiya poraxurlikka tenglashtiriladi yoki garaz maqsadlarda sodir ³ Oʻzbekiston yuridik ensiklopediyasi. - T.: Adolat. 2009. -B. 64. 4 Karimov I.A.Oʻzbekiston XXI asr busagasida. xavsizlika tahdid, barkarorlik shartlari va garakkiyot kafolatyaari. -T.: Oʻzbekiston. 1997. - B. 86. 2 Tairova N.M. Korrupsiya kak sotsialnoe yavlenie: istoriko-filosofskie i politologicheskie aspekty mirovoy mysli i praktiki. Upravlencheskoe Konsultirovanie. N 2 . 2014, 159-169 s. etilgan mansab vakolatini suiisteʼmol qilish deb karaladi. SHuningdek, korrupsiya deganda davlat xizmatchisining sotib olinishi-sotilishi bilan xarakterlanuvchi shaxsiy manfaatlarni koʻzlab xizmat mavkeini suiisteʼmol qilish xam tushuniladi. Korrupsiya mansabdor shaxs yoki boshqa davlat xizmatchisi tomonidan oʻz xizmat vakolatlarini xar qanday koʻrinishda bila turib boʻzilishi, baʼzan esa uyushgan jinoyatchilikning bir elementi sifatida taʼriflanadi. YUridik adabiyotlarda xam korrupsiya atamasiga huquqshunos olimlarning bergan taʼriflari xam rang-barang. N.Kuznetsova korrupsiya deganda, davlat apparati va nodavlat toʻzilmalarining xodimlarini pora evaziga ogdirishdan iborat boʻlgan ijtimoiy xavfli xodisani tushunadi. E.Kairjanov korrupsiyaga sinfiy va tarixan oʻzgaruvchan hodisa deb qaraydi. Uning fikriga koʻra, “jinoyatchilik tushunchasi xususiy mulk paydo boʻlishi va jamiyat antagonistik sinflarga parchalanishi natijasida vujudga kelganini xech kim inkor eta olmaydi. Sinfiy jamiyat paydo boʻlishidan oldin jinoyat tushunchasi xam, jinoyatchilik xam mavjud bulmagan ³. G.Satarov

korrupsiyani “mansab mavkeini garaz niyatda suiiste’mol qilish sifatida tavsiflaydi” 8. K.Tojiboev esa, “korrupsiya jinoyatchiligi natijasida davlat boshqaruvining imkoniyatlaridan foydalanish, uni o‘z manfaatlariga buysundirilgan holda tashkil etilishi asosida vujudga keladi”¹, deb ta’riflaydi. Undan tashqari, korrupsiyaning pora olish va xizmat mavkeini suiiste’mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, korrupsiya amalda namoyon bo‘lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin: - mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish uchun bevosita ishtirok etishi; - davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat to‘zilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavkeidan foydalanish; - o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruxiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; - shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyik o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavkeidan foydalanish; - mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat to‘zilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; - shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni manipulyasiya qilish (bo‘zib ko‘rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho‘zish va sh.k.) uchun xizmat mavkeidan foydalanish; - muayyan gurux manfaatlarida normativ xujjatlar qabul qilish xaqidagi karorlarni ilgari surish; - ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish^{9 10}. Xalqaro xujjatlar va Xalqaro tashkilotlar tomonidan xam ushbu fenomen mansab vakolatini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq jinoyat turiga kirishi xaqida ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan “Xukukiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulk-atvor kodeksi”da korrupsiya - mansabdor shaxsning xar qanday shakldagi mukofot evaziga o‘z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko‘zlab, 6 Kriminologiya / Pod red. N.F. Kuznetsovoy, G.M Minkovskogo. - M.: MGU, 1994. - S. 58. 7 Kairjanov E.I. Prestupnost - yavlenie sotsialnoe // Predu prejdene prestupnosti. 2003, №1. - S. 8. 8Satarov G. A Rossiya i korrupsiya: kto kogo? //Rossiyskaya gazeta. 19.02.1998. S.2. 9 Tojiboev K,- Mansab mavkeini suiiste’mol kilish nuli bilan uzgalar mulkini taloi-taroj kilganlik uchun javobgarlik. - Toshkent: TDYUI, 2004. - B. 13. : Основы борьбы с организованным преступным / Pod red. V S. Ovchinskogo i dr. 2-oe izd. pererab. - S116.: INFRAM, 2003. - S. 190-191. lavozim yo‘riknomasi qoidalarini bo‘zgan holda yoki bo‘zmasdan muayyan xarakatlarni bajarishi yoki xarakatsizligi”¹¹ tushuniladi deyilgan. BMT Bosh Assambleyasining 1990 yil Gavanada korrupsiya muammolari yuzasidan o‘tkazilgan mintaqalararo seminarida qabul qilingan “Davlat xizmatchilari uchun Xalqaro xulk-atvor kodeksi”da “korrupsiya - mansabdor shaxslarning shaxsiy yoki gurux. manfaatini ko‘zlab mansabini

suiiste'mol qilish, shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan o'zlari egallab to'rgan xizmat vazifalaridan g'ayriqonuniy foydalanish ko'rinishlaridir"1 deyilgan. BMTning 2003 yildagi "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida", "korrupsiya - shaxsiy naf ko'rish maqsadida davlat xokimiyatini suiiste'mol qilishdir"12 13 deb ko'rsatilgan. Amerika davlatlari tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amerikaaro konvensiyasi" (Karakas 29 mart 1996 yil) ning 6 - moddasiga ko'ra, "davlat mansabdor shaxsning aktiv yoki passiv sotilishi", "davlat mansabdor shaxsning ta'magirlik xarakatlari", "uchinchi shaxs manfaati yo'lida o'z xizmat vazifalarini suiiste'mol qilish bilan bog'liq holatlar", "mavjud daromadlarni yashirishda firibgarlik holatlari" bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar korrupsiya xarakatlari hisoblanishi to'g'risida ko'rsatib o'tilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi model qonuni (1999 yil 3 aprel)da berilgan ta'rifga ko'ra, "korrupsiya (korrupsion huquqbo'zarlik) - davlat funksiyalarini bajaruvchi mansabdor shaxslar, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslarning o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalangan holda shaxsan yoki vositachi orqali tayriqonuniy tarzda moddiy boylik va imtiyozlarni kulga kiritishi, shuningdek bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishidir". SHu bilan birga 03.01.2017 yildagi O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi qonunning Z-moddasida "Korrupsiya-shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavkeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish" ekanligi ko'rsatilgan. Korrupsiya tushunchasiga berilgan ta'rif bo'yicha Uzbekiston Respublikasi va Xalqaro xujjatlardagi uxshashlik o'rganilganda, shaxsiy naf ko'rish maqsadi asosiy ro'yxat ekanligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, BMTning 2003 yildagi "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida" korrupsiyaning sub'ekti faqatgina davlat xokimiyati vakili bo'lishi ta'kidlangan bo'lsa, milliy qonunchilik normalarida u ko'rsatilmagan. Umuman olganda, tadqiqotchilar tomonidan, Xalqaro va milliy qonunchilik xujjatlarida korrupsiya tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lsada, lekin, shuni qayd etish lozimki, korrupsiya tushunchasiga keltirilgan ta'riflarda bir-biriga yaqin karashlar aks etgan. YUqorida keltirilgan fikrlar orqali korrupsiya tushunchasi va mohiyati yoritildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish da qanday chora-tadbirlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha bir kancha karashlar mavjud. Korrupsiyaga davlat tomonidan to'xtovsiz qarshilik kilmaslik, uning kengayishiga olib keladi. SHuning uchun xam bugungi kunda korrupsiyaga qarshi doimiy siyosatni olib borish xar bir davlat uchun dolzarb hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish metodlarini muhokama qilish jarayonida eng avvalo

Kodeks povedeniya doljnostnyx lits po podderjaniyu pravoporyadka (Prinyat rezolyusiey Generalnoy Assamblei ot 17 dekabrya 1979 g.). United Nations Law Library <http://legal.un.org/avl/ha/uncc/uncc.html> Mejamerikanskoe soglasenie protiv korrupsii. g. Karakas, 29 mart 1996 goda <http://docs.cntd.ru/document/901934990> Modelnyy zakon Sodrujestva nezavisimyx gosudarstv "O borbe s korrupsiyey" (03.04.1999 g.). Antikorrupsionnye dokumenty: mejdunarodnyy i natsionalnyy opyt borby s korrupsiyey. - M.. 2004. uni oldini olish choralariga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining 2-bobi aynan Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi xarakatlarga bagishlangan. Unga ko'ra, davlatlarga nisbatan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagi chora-tadbirlardir. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish: a) Davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi tamoyillarni aks ettiradigan samarali va muvofiqlashtirilgan siyosatni yulga kuyish; b) korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali amaliyot turlarini belgilash; v) davlat tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish nuqtai nazaridan tegishli xuku kiy xujjatlar va ma'muriy choralarning muvofiqligini aniqlash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan baxolashi kerak; g) korrupsiyaga qarshi kurash doirasida tegishli Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan xamkorlik qilish; 2. Davlat xizmatchilari faoliyatini oshkoraligini ta'minlash: a) davlat xizmatchilarni va saylanmaydigan ommaviy mansabdor shaxslarni ishga qabul qilish, oylik maoshlarini tayinlash, yollash, xizmatni utash, xizmat davomida mansabga erishish va iste'foga chiqish tizimlarining ochiqligini ta'minlash; b) saylanadigan ommaviy lavozimlarga nomzodlarni va, mumkin bo'lgan vaziyatlarda, siyosiy partiyalarni moliyalashtirishda oshkoralikni kuchaytirish; v) oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladigan hamda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish tizimini yaratish; 3. Ommaviy mansabdor shaxslarning o'zini to'tish kodekslarini shakllantirish: a) ommaviy mansabdor shaxslarining pokligi, xalolligi va mas'uliyatligini ratbatlantirish; v) mansabdor shaxslar o'z funksional vazifalarini bajarish vaqtida aniqlangan korrupsion xarakatlar to'g'risida xabar berish tizimini tashkillashtirish; g) ommaviy mansabdor shaxslar manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xizmatdan tashqari faoliyat, mashg'ulotlar, investitsiyalar, aktivlar hamda muhim tuxfa yoki naflar to'g'risida deklaratsiyalarni taqdim etishga majbur qilish. 4. Davlat xaridlari va mablag'larni sarflanishini oshkoraligini ta'minlash, buning uchun korrupsiyaning oldini olish nuqtai nazaridan, oshkoralik, rakobat va karorlarni qabul qilishning holisona mezonlariga asoslanadigan tegishli xarid tizimlarini yaratish va boshqalar. Korrupsiyaga qarshi kurashda mintaqaviy mexanizmlarning o'rni katta. Evropa ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti, Evropa Kengashi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, SHanhay hamkorlik

tashkiloti doirasida korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilinib, ularni ijrosini nazorat qilish bo'yicha bo'limlar tashkil qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashning Evropa mexanizmi. Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro tashkilotlarning, ayniqsa Evropa ittifoqining adliya va ichki ishlar sohalarida asosiy vakolatlaridan biri hisoblanadi. N'yu-York, Madrid va Londonda amalga oshirilgan teraktlar korrupsiyaga qarshi kurashga bo'lgan harakatlarni yanada jadallashtirdi. Endi u faqatgina alohida hodisa sifatida emas, xavfsizlik siyosatining muhim qismlaridan biri sifatida qaraladigan bo'ldi. Jumladan, korrupsiya iqtisodiy jinoyatchilik, uyushgan jinoyatchilik, daromadlarni yuvish, odam savdosi, qurol-yarog' va narkotiklar, terrorizm bilan bog'liqligi ayon bo'ldi. Terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va moliya bozori globalizatsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiya bilan milliy miqyosda qarshi kurashish samarasiz va foydasiz. SHuning uchun 16Konvensiya Organizatsii Ob'edinennyyh Natsiy protiv korrupsiy (Prinyata rezolyusiey Generalnoy Assamblei ot 3 1 oktyabrya 2003 g.) korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro jinoyat organlarining hamokrligi alohida ahamiyat kasb etadi, milliy miqyosda emas, xalqaro miqyosda jinoyatchilik qarshi kurash organlarining tajriba almashinuvi talab etiladi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib korrupsiya xalqaro muammoga aylandi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari natijasida bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar Korrupsiyaviy daromad harom daromad bo'lib, bu daromadlardagi tengsizlikni keltirib chiqaradi va kuchaytiradi. Korrupsiyaning milliy xavfsizlikka xatari shundaki, u kishilarda norozilik uyg'otib, jamiyatdagi intizomiy muvozanatga tahdid soladi. SHuningdek, korrupsiya daromadlarning poraxo'rlar qo'lida to'planishiga olib keladi. Natijada, o'z sohibi ishlab topgan daromadning poraga aylangan qismi yashirin tarzda jamg'ariladi. Poraxo'r qo'lida jamg'arilgan pul investitsiyaga ham xizmat qilmaydi. Eng yomoni bu aholi qo'lidagi pul qoldig'ini ko'paytiradi hamda pul muomalasiga raxna soladi. Natural ishlab chiqarish sharoitida poraxo'rlik moddiy shaklda bo'lishi mumkin, uni ko'zdan yashirib bo'lmaydi. Pul munosabatlari esa yashirin munosabat o'rnatishda qo'l keladi. Xullas, korrupsiyaning ob'ektiv sababi pulning yuksak likvidlik xususiyatidir. Bu pul fetishizmini, ya'ni uni ilohiylashtirishni, unga sig'inishni yuzaga keltiradi, pul hamma narsani hal qiluvchi kuchga ega bo'ladi. Bu esa pulga ochko'zlikni uyg'otadi, uni g'ayriqonuniy yo'l bilan topa olish imkoniyati bor kishilarni korrupsiyalashgan kishilarga aylantiradi, bular, odatda, davlat amaldorlari bo'ladilar. Bunda bozor mexanizmining kam layoqatli bo'lishi kuzatiladi, uning o'jizligini davlat mexanizmi to'ldirib boradi. Davlat mexanizmi layoqatli bo'lib qolganda uning amaldorlari xizmatiga talab oshadi, chunki shunday yo'l bilan ish bitadi. Bu poraxo'rlikni rag'batlantiradi, albatta. Korrupsiyaning o'ta avj olishiga quyidagi xavfli ijtimoiy hodislar ham sabab bo'lmoqda. O'tgan asrning oxirlari va XXI

asrga kelib moddiyotga berilish, nafsni qondirish, buyumparastlik kabi illatlarning singdirilishi iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirdi. «Barcha narsa sotish va sotib olish mumkin boʻlgan tovarga aylantiriladi» degan tushuncha insonlar ruhiyatiga singdirila boshlandi. Tovar (buyum)ga sigʻinish kuchaydi. Globallashuvning xususiyati madaniyatlarning «duragaylashuvi» ga olib keldi. Fikr va buyumlarning, inson tanasi va ruhiyatining, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi bugungi kunning asosiy xususiyati boʻlib qolmoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiq munosabatlari ustuvor boʻlmoqda «emak va tomoshalar» shiori ostida insonlarda isteʼmolchilik kayfiyati avj oldirildi. «Insoning hamyoni qaerda boʻlsa, uning qalbi ham oʻsha erda» degan halokatli gʻoya singdirilmoqda. Molparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadriyat sifatida tiqishtirilishi inson maʼnaviy olamiga jiddiy tahdid solmoqda. Mansabdorlik jinoyati korrupsiyaning koʻrinishlaridan biri hisoblanib, uning xususiyati shundan iboratki, ushbu jinoyatlarni qonunning ijrosini taʼminlaydigan va uni qoʻriqlaydigan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Ushbu jinoyatchilikni koʻpgina gʻarb davlatlarida keng tarqalganligi, ushbu davlatlarda davlat apparatining korrupsiyaga botganligi, bu davlatlar qonun chiqaruvchi organi tomonidan korrupsiyaviy illatlarning koʻrinishlari boʻlgan poraxoʻrlik, xizmat vakolatini suisteʼmol qilish va boshqa mansabdorlik jinoyatlari uchun qattiq jazo turlarini kuchaytirish bilan bir vaqtda, mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan xavfsizlik darajasi kamroq boʻlgan va keng tarqalgan jinoyat turlariga kamroq eʼtibor berilgan (masalan, uncha katta miqdorda boʻlmagan sovgʻalarni mansabdor shaxs olsa jinoyat hisoblanmaydi). Dunyo davlatlarining bugungi korrupsiyaga qarshi kurash bilan bogʻliq amaliyoti shundan dalolat bermoqdaki, koʻplab davlatlar qonunchiligida tinimsiz ravishda mansabdorlik jinoyatlariga qarshi kurashning optimal choralari-tadbirlarini topishga urinishlar davom etmoqda. Mansabdorlik jinoyatlari ichida bevosita korrupsiyaviy jinoyatlar hisoblangan, biz uchun katta qiziqish uygʻotadigan mansabdorlik jinoyatlaridan poraxoʻrlik, mansab vakolatini suisteʼmol qilish kabi turlarini ushbu risolada bir qator dunyoning etakchi davlatlari va MDX davlatlari qonunchiligini tahlili qilish orqali koʻrib chiqamiz. Masalan, turli davlatlar qonunchiligida poraxoʻrlik jinoyati uchun jazo miqdori mansabdor shaxs pora evaziga qonun doirasida harakat (harakatsizlik) qilganmi yoki noqonuniy harakat (harakatsizlik) qilganmi, shunga qarab belgilangan boʻlsa, boshqa davlatlar qonunchiligi esa asosiy eʼtiborni pora, pora beruvchi manfaati uchun maʼlum bir harakat bajarilgandan keyin olinganmi yoki oldindan olinganmi degan masalaga koʻproq eʼtiborni qaratgan. Har qanday holatda ham xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi qonunchiligini oʻrganish, oʻzbek qonunchilik amaliyoti uchun juda muhimdir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Korrupsiya tushunchasi.
2. Korrupsiyaga qarshi kurash tushunchasi.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishning Konstitutsiyaviy asoslari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning meyoriy-huquqiy asoslari.
5. Korrupsiya tushunchasi va uni tadqiq etishdagi yondashuvlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
3. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.
4. Mualliflar jamoasi. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.
5. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Universitet”, 2018. 21 b.t.
6. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.
7. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strany. Grajdanskoe obshchestvo (Uchebnoe posobie) - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.

2-mavzu: O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar

Reja:

1. “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ning mazmun-mohiyati va boshqa halqaro huquqiy-normativ xujjatlar. O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi.
2. Mamlakatimiz milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashish fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlari. O‘zbekiston

Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorining mazmuni va ularda belgilangan ustuvor vazifalar, hamda yo‘nalishlar.

3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar: yutuq va kamchiliklar.

Sunggi yillarda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan korrupsiyaviy jinoyatlar davlat xizmatchilari o‘rtasida, ayniksa mansabdor shaxslar kesimida saklanib kolayotganligi, korrupsiya orqali noqonuniy daromadlar orttirishni tiyib turuvchi mexanizmlarini qo‘llash ning samaradorligini tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq qilishni takozo etmokda. Korrupsiyaga qarshi kurashish vositalarini to‘g‘ri qo‘llay olish muammoni bartaraf etishning ishonchli yullaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator qonunchilik aktlari qabul qilingan. Bular ichida Jinoyat, Jinoyatprotsessual, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslar hamda bir qator qonunlar va qonunosti aktlarni keltirish mumkin. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2004 yil 26 avgustda O‘zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida» gi Qonuni qabul qilingan. Qonunga asosan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi: maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat; ichki nazorat; mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlar; Qonunning 8-moddasiga binoan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar o‘tkazilishi ustidan ushbu Qonunda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi. Tan olish kerak, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali ayrim davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining xatti-harakati keng jamoatchilik tomonidan muhokama qilib borilmoqda. Masalan, aynan internetdagi muhokamalar tufayli ayrim viloyatlardagi yuqori mansabdorlarning qonunga zid xatti-harakati jamoatchilikka oshkor bo‘ldi. Jinoyatchilikning barcha shakllari ayniqsa korrupsion jinoyatlarni oldini olishda jinoyatchilik profilaktikasi alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasida sodir etilgan korrupsion jinoyatlar tahlili shuni ko‘rsatmokdaki, 2015-2017 yillarda jami 14.171 nafar jismoniy shaxsga, shundan 11.017 tasi davlat muassasalarining turli lavozimdagi xodimlar, nisbatan 8.572 ta jinoyat ishlari ko‘z tutilgan.

SHuningdek, 2018 yilda 1 ming 177 nafar mansabdor shaxs korrupsion jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan. Pro ko'ratura organlari tomonidan 2018 yilda 2 mingdan ziyod shaxsga nisbatan 1,5 mingga yaqin jinoyat ishi ko'zgatilgan bo'lsa, ulardan 168 nafar shaxs pora olish jinoyatini sodir etgani, 29 nafar shaxs pora berish jinoyati uchun, 2 nafar shaxs pora olish- berishda vositachilik qilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan Bundan tashqari, statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 2015-2017 yillarda umumiy korrupsion kilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning 91% tuman (shaxar), 8%i viloyatlar va 1%i esa respublika darajasidagi davlat xizmatining mansabdor shaxslari hisoblangan. Respublikada korrupsiyaga qarshi kurash sohasida bir kancha ijobiy ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, davlat xizmatchilariga nisbatan korrupsioner sifatida karash holatlari ko'plab uchramokda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bunga sabablardan biri mansabdor shaxslarning daromadlari oshkoraligi ta'minlanmagan va ular tomonidan amalga oshirilayotgan Qimmatbaxo xaridlar ularning daromadlariga mos ravishda emasligi, axoli o'rtasida davlat xizmatchisining daromadlari noqonuniy ekanligiga shub xa uyg'otishiga olib kelmoqda. Xususan, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 2018 yilda korrupsiya to'g'risida fuqarolarning munosabati o'rganilgan. 61 Unga ko'ra, so'rovda ishtirok etganlarning 70 foizi (2017 yilda 56%) jamiyatda korrupsiya bor, deb baxolagan. Bundan tashqari, Kun.uzga tegishli «Sizning fikringiz» Telegram-kanalida so'rov o'tkazilgan bo'lib, korrupsiya holatlariga duch kelganligi xaqidagi savolga 694 kishi javob qaytargan. Ularning 92%i bunday holatga duch kelganligini, 8%i esa duch kelmaganligini bildirgan. SHuningdek izlanish doirasida Telegram mobil messendjeri orqali 73 nafar foydalanuvchi ishtirok etgan anketa so'rovi natijalariga ko'ra, "Davlat xizmatchilari orasida korrupsiya holatlari kanchalik keng tarkalgan" savoliga respondentlarning 86% juda xam keng tarkalgan, 8% past darajada, 5% yo'q deb munosabat bildirgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jamiyatda korrupsiya muammosi kjori darajani tashkil qilmoqda. «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda xam ko'rsatgichlar yildan yilga ortib bormoqda. Bugungi kunda respublikada mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini tatbiq qilish bo'yicha bir kancha yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Birinchi yo'nalish. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining daromadlari, xarajatlari va mulklarini nazorat qilish bo'yicha huquqiy asosning etarli emasligi, ularning orasida korrupsiyaning kjori darajasi sakdanib qolishiga sabablardan biri bulmokda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasiga muvofiq, 2018 yilda ishlab chiqilgan "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonun loyixasida, barcha davlat xizmatchilariga (texnik gurux xodimlari

toifasidagilar bundan mustasno) xar yili mol-mulki xaqida deklaratsiya, daromadlari va katta xarajatlari to'g'risida ma'lumot berishini majburiy qilib kuyishni taklif etilgan edi. Ayni paytda, ushbu qonun loyixasi qabul kilinmagan. Qonun loyixasi qabul qilinishi aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini amaliyota tatbiq qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga katta turtki bo'lar edi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda ko'proq umumiy mazmundagi holatlar kup va korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning vakolatlari va majburiyatlari amalga oshiriladigan chora tadbirlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar ko'rsatilgan. Qonunning 3-moddasida, ya'ni asosiy tushunchalarda "aktivlar deklaratsiyasi" nima ekanligiga aniq ta'riflar berilmagan. Qo'shimcha tarzda, O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunga qadar "Aktivlar deklaratsiyasi to'g'risida" gi me'yoriy-huquqiy xujjat ishlab chiqilmagan. Борба с коррупцией в зеркале общественного мнения <http://ijtimoiy-fikr.uz/rii/issledovaniya/>

[борба_с_коррупцией_в_зеркале_общественного_мнения](#)

So'rov: O'zbekistonliklar mamlakatning asosiy ichki dushmani nima jangligini aytishdi <https://iam.uz/news/2019/05/05/so'rov-o'zbekistoiliklar-mainlakatmng-asosiy-ichki-dushrnanimia-ekanligim-avtishdi> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Bundan tashqari Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish buyicha maxsus komissiya tuzildi. Farmon bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yunalishlari o'rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iboratligi belgilab qo'yildi: sud xokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga xar qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazish shart-sharoitlarini istisno etish; davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko'tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, taqiqlashlar, ragbatlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ruyxatini belgilash; davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish xaqi etarli darajada bo'lishini ta'minlash, shuningdek, davlat xizmatini o'tashda manfaatlar to'knashuvini xal etishning tashkiliy-xuquqiy asoslarini takomillashtirish; korrupsiya bilan bog'lik xuquqbuzarliklar tug'risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish; aholining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini

yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish; davlat organlari va tashkilotlarining xisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish; fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o'tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish. Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarga ikki oy muddatda Davlat dasturining har bir bandi buyicha maqsadlarga erishishda samaradorlik indiqatorlarini ishlab chiqish va Idoralararo komissiya bilan kelishib olish vazifasi yuklatildi. Idoralararo komissiyaga ikki oy muddatda korrupsiyaga qarshi kurashish buyicha namunaviy tadbirlarning idoraviy dasturini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-xuquq masalalari buyicha qo'mitalariga muhokama qilish va kelishish uchun kiritish vazifa qilib berildi. 2019 yil 1 iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya havf-hatarlarini vaqtivaqti bilan majburiy baholab borishi, uning yakunlari buyicha: korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ruyxatini shakllantirishi; idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining xar choraklik monitoringini amalga oshirishi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarni ko'rish; Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda dar yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlashi; har yili Idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va xuquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish buyicha takliflarni kiritishi belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi, Adliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi Bosh prokuratura bilan birgalikda yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xukukiy ta'lim berish buyicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va 2019 yil 1 sentyabrdan boshlab tatbiq etish va umumiy o'rta, o'rta mahsus, kasbxunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytirilishini ta'minlashi belgilandi. Farmonning 4 bandiga asosan davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi etarli darajada bo'lishini ta'minlash, shuningdek, davlat xizmatini o'tashda manfaatlar to'qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi kun tartibiga qo'yilgan. Ikkinchi yo'nalish. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmati va tadbirkorlikni bir vaktida olib bormaslik bo'yicha tegishli normativ huquqiy xujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1992 yil 6 martdagi "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish takikdangan mansabdor shaxslarning

ruyxati to'g'risida'Ti 103-sonli karoriga asosan quyidagi mansabdor shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish takikdangan: - davlat xokimiyati va boshqaruv organlarining, huquqni muxofaza qilish organlarining xodimlariga; - davlat banklari raxbarlari va ularning o'rinbosarlariga, xizmat yuzasidan pul belgilariga va pul (bank) xujjatlariga bevosita aloqasi bo'lgan mansabdor shaxslarga; - davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari raxbarlariga va ularning bank xujjatlariga imzo kuyish huquqiga ega bo'lgan o'rinbosarlariga; - davlat ta'minot va savdo-sotik korxonalari va tashkilotlarining raxbar xodimlariga; - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni xal qilish yoki bunday faoliyatni nazorat qilish vazifasiga kiruvchi davlat organlarining raxbar xodimlari va mutaxassislariga. Davlat xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi normativ xujjatlar asosida ta'qiqlangan. Biroq ularning davlat xizmatidagi faoliyatidan tashqari olingan daromadlarini to'g'ridan-to'g'ri aniqlash imkoni yo'q. Bundan tashqari, mansabdor shaxslar mavjud mulklarini va qo'shimcha daromadparini oshkor etishni istamaydilar. Istisno tarikasida, ularning Qonun doirasidagi qo'shimcha daromadparini aniqlash soliq deklaratsiyalari asosida amalga oshiriladi. Davlat xizmatchilari qo'shimcha olingan daromallariga soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlari deklaratsiyasini taqdim qilishi qonunchilikda belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 189-moddasida nazarda to'tilgan daromadlarga deklaratsiya asosida soliq, solinadi. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga aulov manbaida soliq solinmagan bo'lsa, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik xaqi tarikasida olingan, asosiy bulmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi, O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqaridagi manbalardan olingan, soliq agentlari bulmagan manbalardan olingan daromadlar shular jumlasidandir. Deklaratsiya bo'yicha jismoniy shaxslarning soliq idoralariga hisobot davridagi daromadlari va o'zlariga bevosita daxldor bo'lgan soliq imtiyozlari xaqidagi rasmiy bayonotni hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etishni anglatadi. Soliq deklaratsiyasi va soliq stavkalari asosida tulanishi lozim bo'lgan soliqni Davlat soliq xizmati idoralari nazorat qiladilar. Umumlashtirgan holda kiskacha aytganda, mansabdor shaxslarning daromadlarini va mulstarini ochiqligini ta'minlash va ushou yo'nalishda tegishli ishlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi. Uchinchi yo'nalish. Amaliyotda kup xollarda uchraydigan holat bu davlat xizmatidagi mansabdor shaxs pora olish, mansabini suiiste'mol qilish orqali orggirgan mablag'larini qonuniylashtirish maqsadvda o'ziga yaqin qarindoshi nomiga kuchmas mulk yoki avtotransportni rasmiylashtiradi. Bu esa, korrupsionerni aniqlash imkonini kamaytiradi. Ushbu muammoni echimi sifatida respublikamizda umumdeklaratsiya mexanizmini joriy qilish hisoblanadi. Unga

ko'ra, fuqaroning daromadiga mos kelmaydigan xarajatlarini umumdeklaratsiya orqali solishtirilib, kelib chiqish manbasi tekshirilishi natijasida noqonuniy daromadlarni aniqlash imkoni mavjud bo'ladi. Ushbu yo'nalishda dastlabki ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, bugungi kunda davomiyligi tuxtab kolgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentyabrdagi PF3127-sonli "Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni asosida jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash mexanizmi 2003 yildan boshlab Respublika bo'yicha tatbiq etilgan. Biroq ushbu Farmondagi 2002-2005 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalashning Xalqaro me'yorlarga mos keladigan mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan bo'lsada, bugungi kunda ushbu farmon ijrosi to'liq ta'minlanmagan. Turtinchi yo'nalish. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura rasmi; O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati; O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Addiya vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura xuzuridagi Iktisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenta hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, NNT, OAV, fuqarolar xam korrupsiyaga qarshi kurashish ni amalga oshiradi. Uz navbatida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining xech birida davlat xizmatchisining daromad, xarajat va mulklarini nazorat qilish vakolati berilmagan. Korrupsiya jinoyatlarining asosiy qismi lateng bo'lib qolmoqda. Mazkur jinoyatlarni fosh etish dinamikasi sub'ektiv omil - huquqni muxofaza qilish organlari faoliyatining, mamlakat raxbariyatining siyosiy irodasiga bog'liqdir. Mamlakatimizda korrupsiya jinoyati uchun javobgarlikka tortilganlar sonining 2013 yilga nisbatan 2017 yilda 1,5 foizga ortgan. Biroq korrupsiya jinoyatchiligining faqat 1-2 foizi fosh bo'ladi, kolgan qismi esa latengligicha qolmoqda. Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiya jinoyatlarining to'zilishi quyidagicha: pora olish (24,4 foiz), mansab soxtakorligi (23,1 foiz), xokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (22,2 foiz) xokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (21,7 foiz), pora berish (5,4 foiz) va boshqalar (3,5 foiz).⁶² Tadqiqot yuzasidan 96 nafar respondentlar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovining natijalariga ko'ra Surovnomadagi "Sizningcha noqonuniy daromad orttirilishini aniqlash yuzasidan olib borilayotgan tadbirlarga qo'shimcha kiritish kerakmi?" savoliga respondentlarning 83% Xa, 14% Javob berishga qiynalaman va 3% Yuk degan javoblarni bildirishgan. Xuddi shu savol bilan Telegram mobil messendjeri orqali o'tkazilgan anketa so'rovining natijalari biri biriga juda yaqin. Xususan, respondentlarning 80% Xa, 12% yo'q va

8% javob berishga qiynalishini aytishgan. Korrupsiyaga qarshi kurashda uning samaradorligini oshirishda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini qo'llash davlat xizmatchilarining noqonuniy orttirgan 62 O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi №4 (36) 2018y. 5-8 betlar daromadlarini oshkor qilishda ijobiy xizmat qiladi. Shuningdek, Manfaatlarni to'qnashuvini oldini olish va qarshi kurashishga qaratilgan choralar amalga oshirilgan bo'lsada uni aniqlash bo'yicha mexanizm yo'q. O'zbekiston Respublikasida noqonuniy daromad orttirish va manfaatlarni to'qnashuvini oldini olish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2017 yil 3 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonunning 21-moddasida "Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlarni to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yul kuymasligi kerak. Manfaatlarni to'qnashuvi yuzaga kelgan takdirida, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita raxbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlarni to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan raxbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar kurashli shart" deb belgilab qo'yilgan. Biroq, manfaatlarni to'qnashuvi yuzasidan xodim ixtiyoriy ma'lumot bermasa uni aniqlash choralari respublikada joriy kilinmagan. Davlat organlarining maxsus bulinmalari yoki odob komissiyalari manfaatlarni to'qnashuvini aniqlashda asosan yaqin qarindoshlik darajasini ko'rib chiqadilar. Beshtchi yo'nalish. O'zbekiston Respublikasining 2008 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (2003 yil 31 oktyabr, Nyu-York), shuningdek, 2010 yili IHRT doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul xarakat rejasiga (2003 yil 10 sentyabr, Istanbul) qo'shilishi korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini yaratishga asos buldi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy Xalqaro xujjat bu - shubxasiz, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasi hisoblanadi. U 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan bo'lib, mukaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo'lib, quyidagilardan iborat: 1- bob umumiy qoidalar; 2- bob korrupsiyaning oldini olish choralari; 3- bob kriminallasuv va XMKO faoliyatiga oid masalalar; 4- bob Xalqaro xamkorlik; 5- bob aktivlarni qaytarish; 6- bob o'zaro axborot almashinuvi va texnikaviy yordam; 7- bob konvensiyani tatbiq etish; 8- bob yakuniy qoidalar. O'zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro xujjatni ratifikatsiya qilgan: O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul kilindi va 2008 yil 27 iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senata tomonidan ma'qo'llandi va 2008 yil 28 avgustdan e'tiboran

kuchga kirdi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo‘shilgan. Jumladan, Krnunng 1-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 6- moddasining 3-bandi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Bosh pro ko‘raturam, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi - davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilanganligi bildirilgan. Qonunning 2-bandiga ko‘ra, Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo‘yicha 15- 19, 21, 22-modsalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish ekanligi va ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyam tatbiq etilishi bayon etilgan. Ushbu xatti-xarakterlar O‘zbekiston jinoyat qonunchiligi bo‘yicha xam jinoiy qilmish sifatida baxolanadi va amaldagi jinoyat qonunida bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Kushun mazmuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiyaning “Ommaviy mansabdor shaxslarning o‘zini to‘tish kodekslari” 8-moddasi va “Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi”ni jinoyat deb baxolagan 20 - moddasiga qo‘shilmagan. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Iqtisodiy xamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul xarakterlar rejasi doirasida davlat xizmatchilarining fidokorona xulqini shakllantirish bo‘yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ular quyidagilar: - davlat xizmatchilarini ishga qabul qilish jarayonini tanlov asosida amalga oshirish mexanizmini ta‘minlovchi xuku kiy asosni ishlab chiqish; - davlat xizmatchilari oylik ish xaqining oshkoraligini ta‘minlash tizimini joriy qilish; - manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha qoidalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; - davlat organlarining mansabdor shaxslarining mol-mulkini majburiy tarzda deklaratsiya qilish tizimini joriy etish, davlat mansabdor shaxslarining mol-mulkini e‘lon qilish tartibini tartibga solish, ushbu deklaratsiyalarni tasdikdash va ularni jamoatchilikka etkazish masalalarini ko‘rib chiqish; - davlat xizmatchilarning sovg‘alar olish chegarasini belgilash IHTT tomonidan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tavsiyalarning bajarilishi yuzasidan tegishli ishlar sust darajada amalga oshirilayotganligi ta‘kidlangan.⁶³ Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini qo‘llash dolzarbligini saklab qolmoqda. Qo‘shimcha tarzda aytish mumkinki, aktivlar deklaratsiya sini respublikamizda tatbiq qilish jarayonida ayrim muammolarni oldini olish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish zarur hisoblanadi: - aktivlar deklaratsiya sini tatbiq etishda mansabdor shaxslar o‘rtasida noroziliklarni yuzaga keltirmaslik choralarni ko‘rish. - aktivlar deklaratsiya sini kimlarga nisbatan qo‘llash. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining soni

yuzasidan aniq ma'lumotlar mavjud emas, taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra 1.5 mln.dan ortiq davlat xizmatchilari turli sohalarda xizmat faoliyatini olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi mutaxassislari O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini tatbiq etishda davlat xizmatchilarining son jixatdan ko'p ekanini hisobga olib, ma'lumotlarni saralash va kuchli nazorat o'rnatish uchun eng kamida respublika bosqichidan boshlash kerakligini ta'kidlagan. Shuningdek, magistrlik ishi yuzasidan 96 nafar respondentlar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovining natijalariga ko'ra, "Korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini tatbiq etishning dastlabki bosqichida qaysi darajadagi davlat xizmatchilarini qamrab olgan maqsadga muvofiq?" savoliga respondentlarning 49% eng kamida respublika darajasidagi mansabdor shaxslarni, 18% eng kamida viloyat darajasidagi va undan yuqori mansabdor shaxslarni, 23 % eng kamida tuman darajasidagi va undan yuqori mansabdor shaxslarni va 10% texnik xodimlardan tashqari barcha davlat xizmatchilarini ko'rsatib o'tishgan. - aktivlar deklaratsiyasi joriy qilingandan so'ng xarajatlarni aniqlashda 63 Промежуточный доклад о выполнении рекомендаций Третьего раунда мониторинга Стамбульского плана действий Узбекистаном 2018. С. 59-60 quyidagi muammolar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish:

- korrupsion to'lovlar mansabdor shaxsga emas, balki uning oila a'zolariga taqdim qilinishi mumkin. Bunda, mansabdor shaxs porani uchinchi shaxs yaqin qarindoshlari orqali qabul qilib, o'zi esa rasmiy daromadlari va xarajatlarini deklaratsiyada ko'rsatadi.

- noqonuniy orttirilgan mol mulkni korrupsioner mansabdor shaxs o'zi va oila a'zolarining nomiga rasmiylashtirmasdan boshqa qarindoshlik darajasi mavjud bulmagan shaxs nomiga yoki tanishining korxonasi balansiga rasmiylashtirilishi hamda ushbu mulkdan mansabdor shaxs foydalanishi mumkin. Misol uchun, mansabdor shaxs tanishining nomiga noqonuniy orttirgan daromadi hisobidan uy sotib oladi hamda ushbu uydan xech qanday xujjatlar rasmiylashtirmasdan o'z extiyoji uchun foydalanadi;

- xorijiy davlatlarda mulkka egalik qilish. Bu erda, naqd olgan pora hisobidan noqonuniy yullar orqali ushbu mablag'larni olib chikib u erdan o'ziga yoki uchinchi shaxs nomiga mulk sotib oladi;

- mutaxassislar fikriga ko'ra, pora evaziga orttirilgan mablag'larning o'rtacha 20% mulkni xarid qilish uchun sarflanadi. Aksariyat xollarda esa mavjud kuchmas mulkni qayta ta'mirlash, davlat ruyxatida mavjud bulmaydigan Qimmatbaxo toshlar, suvenirlar, tilla buyumlari va tuy marosimlariga sarflanishi mumkin. Misol uchun, mansabdor shaxs 100 mln. sumlik pora olib tuyxona bilan

kelishgan holda xech qanday shartnoma imzolamasdan tuy marosimi uchun sarflaganda, ushbu summani noqonuniy daromad ekanligini isbotlash nazorat kiluvchi organ uchun qiyinchilik yaratadi. - deklaratsiya ma'lumotlarini taqdim qilish muddatlarini, vaqtida taqdim qilmagan yoki umuman taqdim qilmagan mansabdor shaxslarga nisbatan jazo choralarini belgilash. SHuningdek, aktivlar deklaratsiyasi orqali noqonuniy daromad orttirilganligi aniqlansa kay tartibda jazo chorasi qo'llanilishi kerakligini belgilash. - aktivlar deklaratsiyasi qanday ma'lumotlarni o'zida jamlash kerakligi bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish. YUqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash kerakki, aktivlar deklaratsiyasini amaliyotga tatbiq etishdagi muammolarni bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan ishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aktivlar deklaratsiyasi noqonuniy daromad orttirayotgan mansabdor shaxslarni aniqlashda samarali xizmat qilishi xorijiy tajribada ko'zatilmokda. Ushbu mexanizm fuqarolarning davlat idoralarida faoliyat olib borayotgan xalol xodimlarga nisbatan ishonchini orttiradi. Respublikada korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini samarali faoliyat olib borishi hamda korrupsion jinoyatlar darajasining pasayishi uchun muxdm bo'lgan vosita va usullarni amaliyotga joriy qilishda xorijiy davlatlarning tajribasini doimiy ravishda ko'zatib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, bugungi kunda ko'plab davlatlar korrupsiyami tartibga solish uchun turli xil usullar va mexanizmlardan foydalanib kelmoqda.

Korrupsiya iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab xodisa bo'lib, ko'plab davlatlar mansabdor shaxslar o'rtasidagi korrupsiyami kuchayib ketmasligini oldini olish maqsadida, kat'i jazo choralarini kullamokda. Ilm - fan doirasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning orasida eng kuchli va asosiysi negizi hisoblanuvchi garb - evropa yondashuvi bo'lib u BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasidagi tamoyillarga asoslanadi. Ushbu yondashuvning asosiy jixati shundaki, korrupsiyaga qarshi kurash chorolari belgilangan Qonun xujjatining mavjudligi hamda unda davlat xizmatchisining pora olish va mulkni talon-toroj qilganligi uchun jazoning mukarrarligi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish va uni boshqarishga bo'lgan ta'qiq, mansabga belgilashdan oldin rakobatning mavjudligi, offshor xududdagi korxonalariga egalik qilmaslik, undan tashqari oila a'zolari muhim o'rin egallaydigan korxonalar bilan manfaat keltiruvchi aloqalarni o'rnatmaslik, yaqin qarindoshlari va o'zining daromad va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni deklaratsiyalash majburiyati ko'rsatilishi kabi kompleks choralar aks ettiriladi.⁶⁴ Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida mavjud korrupsiyaga qarshi kurash amaliyoti xorijiy davlatlar tajribasidan kuchli farq kilmasada, biroq, mamlakatimizga tatbiq etish mumkin bo'lgan vositalar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan korrupsion jinoyatlarni

sodir etgan shaxslar sud xukmiga asosan jazo choralari qo'llaniladi. Biroq, korrupsiyaga oid xarakatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlash asosan tezkor tadbirlar orqali amalga oshirilishi tufayli, korrupsion jinoyatlar katta qismi lateng bo'lib qolmoqda. Hamda noqonuniy daromad orttirilganligini isbotlashga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, ularni xaqqoniyligini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi organlarga bir qator qiyinchiliklar keltirib chiqarmokda. Yuqorida aks ettirilgan muammolarni qisqartirish va mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat xizmatchilarining noqonuniy daromad orttirishini aniqlash, ularga nisbatan profilaktik ishlarni olib borishga xizmat qiluvchi daromadlar, xarajatlar va mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan aktivlar deklaratsiyasini amaliyotga tatbiq etish dolzarb bo'lib qolmoqda. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida, O'zbekiston Respublikasi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini amaliyotga joriy etishda quyidagi ishlarni olib borish amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchi navbatda, davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi, tashkilotning asosiy prinsiplari va davlat xizmati tizimining faoliyatini tartibga solish, davlat xizmatchilari kadrlari tarkibini shakllantirish, tanlov asosida yollash, o'tkazish, faoliyatni baxolash, xizmatdan bo'shatish masalalari, davlat xizmatchilarining ijtimoiy va pensiya ta'minotini hisobga olgan holda, xalol va fidokorona xizmatni moddiy va nomoddiy shaklda rag'batlantirish mexanizmlari, shuningdek, xizmat etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini o'zida aks etgan "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish protsessini jadallashtirish. Ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat xizmatchisining aktivlar deklaratsiyasini qo'llashni majburiy ekanligini ko'rsatib o'tish. Shuningdek, "Aktivlari deklaratsiyasi to'g'risidagi" me'yoriy-huquqiy xujjatni ishlab chiqish, unda aktivlar deklaratsiyasi bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab olishi xususan, aktivlar deklaratsiyasi kimlarga nisbatan tatbiq etilishi, deklaratsiyada qanday ma'lumotlar aks etishi kerakligi, qaysi organ tomonidan ma'lumotlar tahlil va nazorat qilinishi, jazo turlari va boshqa deklaratsiyaga taaluqli ma'lumotlarni qamrab olishi kerak.

Qo'shimcha tarzda, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida ya'ni asosiy tushunchalarda "aktivlar deklaratsiya"si nima ekanligini qo'shimcha ravishda kiritish lozim. Xususan, "Aktivlar deklaratsiyasi - davlat xizmatchisining daromadlari va ularning manbalari, xarajatlari hamda egalik huquqi va shartnoma asosida tegishli bo'lgan mulklari to'g'risidagi ma'lumotnoma.". Shuningdek, ushbu Qonunning 19-moddasi "Davlat boshqaruvi sohasida 64 Komnatnaya Yu. A. Адаптация зарубежного опыта борьбы с коррупцией через её легализацию в Российской Федерации как метода правового и экономического регулирования жизни

современного общества // Проблемы современной экономики: материалы III между нар. науч. конф. - Челябинск, Два комсомолса, 2012. S. 34-36

korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar”ga qo’shimcha aktivlar deklaratsiyasiga oid bandni kiritish. Jumladan, “Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat xizmatchisining mulklari, daromadlari va ularning manba’lari, xarajatlarini nazorat qilish’. Ikkinchidan, davlat xizmatchilariga nisbatan aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini joriy qilishdan oldin kapital amnistiyasini qo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi. Ushbu amnistiya orqali mansabdor shaxs ixtiyoriy ravishda mamlakat ichidagi va tashqarisidagi o’ziga tegishli pul mablag’lari, mulklari yoki uchinchi shaxs orqali egalik qilayotgan mulklarini, korxonadagi ulushlarini qonuniylashtirishga imkon beriladi. O’z navbatida, davlat mansabdor shaxs tomonidan ochiqdagi boyliklarga nisbatan jazo choralari ko’rilmasligi kafolatlanishi lozim bo’ladi. Kapital amnistiyasi o’tkazilgandan so’ng aktivlar deklaratsiyasini tatbiq etish mansabdor shaxslar o’rtasida “shok holati” yuzaga kelishini oldini oladi. Undan tashqari, keyingi davrlarda aktivlar deklaratsiyasi ma’lumotlarini tekshirishda va ularni tahlil qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi. Uchinchidan, Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlarini umumdeklaratsiyalash tizimiga o’tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda jismoniy shaxslar daromadlarini mavjud deklaratsiyalash asosida soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, ikkinchi bosqichda deklaratsiya asosida soliqqa tortiladigan daromadlar ko’lamini kengaytirish, bunda yuqori daromadga ega hamda yirik iste’mol tovarlari sotib olgan jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqqa tortishni nazarda to’rtish, uchinchi bosqichda soliq solinadigan daromadga ega bo’lgan barcha jismoniy shaxslarni yillik daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqqa tortishni joriy etish. To’rtinchidan, xorijiy davlatlar tajribasida aktivlar deklaratsiyasi ma’lumotlarini qayta ishlash va nazorat qilish asosan korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha maxsus organ yoki soliq xizmatiga birlashtirilgan bo’ladi.

Respublikada aktivlar deklaratsiyasi ma’lumotlarni qayta ishlash va uni tahlil qilish uchun O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura xuzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga ushbu vazifalarni yuklash. Nazorat qiluvchi organga aktivlar deklaratsiyasi ma’lumotlarini xaqqoniyligini tekshirish va ularni tahlil qilish uchun davlat idoralarning ma’lumotlar bazasi bilan solishtirish imkonini berish. Xususan, ushbu ma’lumotlarga quyidagilar kiradi: - DSQ ma’lumotlar bazasiga; - IIV ma’lumotlar bazasiga; - Ergeokadastr ma’lumotlar bazasiga; - Qimmatli qog’ozlar bozori; - Notarius xizmatiga; - Bank ma’lumotlariga (Bank sirini ta’minlash maqsadida elektron so’rov orqali) va boshqa tegishli tashkilotlarga. Markaziy bank va boshqa tegishli tashkilotlar nazorat qiluvchi organning so’roviga 1 ish kuni muddat ichida javob berishga

majburiy qilib belgilash. Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida, vazirlik va davlat organlarida Odob axlok komissiyalariga xodimlarining faqat aktivlar deklaratsiyasi ma’lumotlarini ko‘z tatib imkonini yaratish. Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi BMTning “Korrupsiyaga qarshi” Konvensiyaning 8-moddasiga (xdr bir ishtirokchi davlat, o‘z ichki huquqiy tizimining asosiy tamoyillariga muvofiq, mansabdor shaxslarni tegishli organlarga, faoliyati davomida manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan xizmatdan tashqari faoliyat, mashtulotlar, investitsiyalar, mulklari hamda tuxfa yoki naflari to‘g‘risida deklaradiyalarni taqdim etishga majbur qiladigan chora va tizimlarni ishlab chiqadi) qo‘shilishi va uni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ifodalashi hamda, ushbu Konvensiyaning 20-moddasiga (xar bir ishtirokchi davlat, o‘z konstitutsiyasi va huquqiy tizimining eng muhim prinsiplariga rioya qilish shartida, noqonuniy tarzda boylik orttirilishini, ya’ni ommaviy mansabdor shaxs aktivlari uning qonuniy daromadlaridan oqilona asoslanib berila olmaydigan darajada oshib ketishini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan xarakter sifatida e’tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo‘lgan qonuniy va boshqa choralarni ko‘rish imkoniyatini ko‘rib chiqadi) qo‘shilishi va uni JKning Maxsus qismida ifodalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oltinchidan, xorijiy davlatlar tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasida aktivlar deklaratsiyasini tatbiq etishda deklaratsiya taqdim qilganlarning ma’lumotlarini saralash va ularni tahlil qilish hamda nazorat qilish uchun dastlab respublika miqyosidagi bo‘lim boshliqlari va ulardan yuqori darajadagi mansabdor shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlari (ota-ona, turmush o‘rtog‘i, farzandlari) uchun qo‘llash. Bundan tashqari, saylovlarda ishtirok etish uchun o‘z nomzodini qo‘ygan siyosatchilarga xam taqdim etish maqsadga muvofiq. Sababi, ovoz berishda ishtirok etayotgan fuqarolar siyosatchining daromadlari korrupsiya evaziga shakllanmaganligini anglashlari zarur. Bu jarayonlarning afzalliklaridan biri shaffoflik tamoyilini shakllantirishda xizmat qiladi. Ettinchidan, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash va noqonuniy mablag‘larning legallashtirish bo‘yicha naqd pul ayirboshlashning chegaraviy qiymatlarini o‘rnatish. Xorijiy davlatlarda korrupsiya va xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashda ushbu mexanizmdan foydalaniladi. Bu kabi mexanizmni o‘rnatish aktivlar deklaratsiyasidagi xarajatlar qismidagi ma’lumotlarning xaqqoniyligi ta’minlashga xizmat qiladi. Xususan, Xiloy Xalq Respublikasida davlat xizmatchilariga oylik ish xaqi daromadlari plastik kartalarga orqali to‘liq amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmni mamlakatimizda amalga oshirilish natijasida, daromad va xarajatlar o‘rtasida aniqlangan tafovutni isbotlashga xizmat qiladi. Sakkizinchidan, aktivlar deklaratsiyani taqdim qilmaganligi uchun jazo choralari adolatli, proporsional va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Biroq, aktivlar deklaratsiyasini

taqdim qilishda dastlabki bosqichida davlat xizmatchilarining huquqiy ongi shakllanmaganligi hisobga olib jazo choralarini engil turlaridan foydalangan maqsadga muvofiq. Bu kabi holat, Latviyada kuzatilgan bo'lib, Latviyada boshlang'ich bosqichda 100 ta mansabdor shaxsdan 19 tasida xato va kamchiliklar mavjudligi aniqlangan. Tegishli tushuntirish ishlari olib borilgandan so'ng keyingi yili deklaratsiya taqdim qilganlarning 94 foiz behato ma'lumotlarni taqdim qilgan. Asosan boshlang'ich bosqichda tahminan 1-3 yil davomida aktivlar deklaratsiyasini taqdim qilmagan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo turlarini qullamagan holda OAVlari va internet saytlari orqali ularning nomlarini keng ommaga e'lon qilib borish. Xorijiy mamlakatlarda deklaratsiya ma'lumotlarini tekshirishda "Korrupsiya indikator", ya'ni mansabdor shaxsning va uning oila a'zolarining daromadlari va xarajatlarning o'rtasidagi tafovutni aniqlash hisoblanadi.

Deklaratsiya ma'lumotlarini tekshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim hisoblanadi:

- Dastlabki (avtomatlashtirilgan tarzda) tekshiruv:

- Shaxsiy ma'lumotlardagi xatoliklar;

- arifmetik xatoliklar

- Umumiy tekshirish:

- Mavjud mulklar qiymatining xaqikiyligi;

- Ko'rsatilgan daromadlarning aniqligi;

- Daromad manbalari va mulklarning to'liq ko'rsatilganligi;

- Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi. Aktivlar deklaratsiyasi belgilangan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun mansabdor shaxslar uchun jazo choralarini belgilashda ikki turga ajratish kerak bo'ladi.

Xususan: a) birinchi guruxga:

- aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlarni umuman taqdim etmagan;

- deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etmaganlik uchun jazo.

b) ikkinchi guruxga:

- ma'lumotlarni to'liq taqdim etmaganligi uchun;

- yolg'on ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun; Birinchi guruxga kiruvchi jazo turlariga ma'muriy javobgarlik va intizomiy jazo choralarini qo'llash kerak.

Bunda, deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim qilmaganlarga nisbatan eng kam oylik ish xaqining 1 baravaridan 3 baravarigacha ma'muriy jarima qo'llanilishi kerak. Undan tashqari, ma'muriy jarima qo'llanilgandan so'ng xam deklaratsiya ma'lumotlarini taqdim etishdan bosh tortgan mansabdor shaxslarga nisbatan ishdan bo'shatish va jinoiy javobgarlik choralarini ko'rish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi guruxga taaluqli jazolarga jinoiy javobgarlik choralarini kiritish lozim. Ma'lumotlarni to'liq taqdim etmaganligi yoki yolg'on ma'lumotlarni taqdim

etganligi nazorat qiluvchi organ tomonidan aniqlangan takdirda mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak. Xorijiy davlatlarda, jumladan Gurjiston, Italiya, Polsha, Buyuk Britaniyada 2-guruxga kiruvchi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish belgilangan. Mansabdor shaxsning ishlab topilgan daromadi va orttirilgan mulkka nisbatan salbiy tafovut aniqlansa hamda ushbu tafovut isbotlab berilmagan takdirda aniqlangan mulkni yoki unga teng miqdordagi mulkni konfiskatsiya qilish choralarini ko'rish. Bunda, konfiskatsiya qilish jarayonini 2 bosqichda amalga oshirish lozim. Birinchi bosqichda deklaratsiya ma'lumotlarini nazorat qiluvchi organ tomonidan mulkni asossiz orttirilganligini isbotlash maqsadida tegishli surishtiruv ishlarini olib boriladi. Ushbu jarayonga guvoh va mansabdor shaxs jalb qilinadi. Agar mulk noqonuniy orttirilganligi aniqlangan takdirda to'plangan ma'lumotlar sudga taqdim qilinadi. Keyingi bosqichda esa sud konfiskatsiya qilish (mulkni o'zini yoki unga teng summani qaytarib olish) bo'yicha karorni e'lon qiladi. To'qqizinchidan, aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlarini taqdim etishda asosiy urg'u korrupsiyaga qarshi kurashishni qamrab olishi kerak. Jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan ma'lumotlarni taqdim qilishda uning ish joyi o'zgarganligiga e'tibor qaratish lozim. Respublikada mansabdor shaxslarga nisbatan aktivlar deklaratsiyasini tatbiq qilinganda uch xil deklaratsiya taqdim qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- mansabdor shaxs o'z faoliyatini boshlagan muddatdan so'ng 30 kun ichida deklaratsiya ma'lumotlarni taqdim etish;

- Xar yili 1 aprelga qadar deklaratsiya ma'lumotlarini taqdim qilish;
- o'z faoliyati muddati tugagandan so'ng 30 kundan kechiktirmay deklaratsiya ma'lumotlarini topshirish. Aktivlar deklaratsiyasida mansabdor shaxsning (yaqin qarindoshlarining) egalik huquqi va shartnoma asosida tegishli bo'lgan kuchmas mulki, transport vositalari hamda daromadi miqdori va uning manbai, bankdagi hisob rakamlari, naqd pul va qimmatbaxo buyumlari (20 mln. sumdan yuqori bo'lgan), xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatib o'tish majburiyatini belgilash; Deklaratsiya ma'lumotlarini oshkoraligini ta'minlashda umumiy ma'lumotlarni ochiq qilish lozim hisoblanadi. Axoliga davlat xizmatchisining ma'lumotlarini internet orqali e'lon qilishda ob'ektlarning manzili va daromadlarining manbalarini ko'rsatmaslik maqsadga muvofiq. Sababi, deklaratsiya ma'lumotlarini jinoyat yo'lida foydalanilmasligini oldini olish zarur. Bundan tashqari, jurnalistik surishtiruvni amalga oshirish doirasida mansabdor shaxslarning to'liq ma'lumotlari nazorat qiluvchi organga taqdim qilingan so'rovga asosan jurnalistlarga taqdim qilish mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini tatbiq etish ushbu sohada olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari,

sohadagi mavjud muammolarni normativ-huquqiy xujjatlarni takomillashtirish orqali bartaraf etish mumkin. Umuman olganda, mamlakatimizda aktivlar deklaratsiyasi maxanzimini tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, deklaratsiyani joriy qilishda davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi va moddiy ta'minotiga alohida urg'u berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Korrupsiya tushunchasi.
2. Korrupsiyaga qarshi kurash tushunchasi.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishning Konstitutsiyaviy asoslari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning meyoriy-huquqiy asoslari.
5. Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy normalari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
3. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.
4. Mualliflar jamoasi. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo'llanma) – T.: "Info Capital Group", 2019. – 432 b.
5. O'tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O'quv qo'llanma) – T.: "Universitet", 2018. 21 b.t.
6. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.
7. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strany. Grajdanskoe obshchestvo (Uchebnoe posobie) - T.: "Iqtisodiyot", 2020. - 252 s.

3- mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash sub'ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari

Reja:

1. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sub'ektlari. Korrupsiyaga qarshi kurash idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.
2. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va ularning huquqiy-siyosiy faolligini oshirish. Korrupsiyaga

qarshi kurash ishlarida fuqarolik jamiyati institutlarining vazifasi va ularning faolligini oshirish mexanizmlari.

3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishda korrupsiyaga qarshi kurashishning zarurligi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yuksaltirishda korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati.

Prezident Shavkat Mirziyoev 27 may kuni O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘-e‘tiborini oshirishga qaratilgan. Farmon bilan 2019–2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi va Senat raisi Nig‘matulla Yo‘ldoshev boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etiladi. Ular joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o‘rganish, joylarda korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsiyaning holati to‘g‘risida O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib boradi. Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iborat ekani belgilandi:

- sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;
- davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, taqiqlashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;
- davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi etarli darajada bo‘lishini ta’minlash,

shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;
- davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;
- fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta’minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish.

Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo‘qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi.

2019 yil 1 iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqti-vaqti bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo‘yicha: korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro‘yxatini shakllantiradi; idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarni ko‘radi; Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi; har yili Idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish bo‘yicha takliflarni kiritadi. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo‘l qo‘yganliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo‘ladi. 1 sentyabrdan boshlab ta’lim muassasalarida yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim berish bo‘yicha kompleks

chora-tadbirlar tatbiq etilishi lozim. Bundan tashqari, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi va oliy taʼlim muassasalarining oʻquv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytiriladi. Uch oy muddatda, shu jumladan, texnik infratuzilmani va zarur dasturiy taʼminotni yaratishga oid zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda muayyan toifadagi davlat xizmatchilarining mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish boʻyicha takliflar ishlab chiqilishi lozim. 2019 yil 1 avgustdan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va etakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy taʼlim sohalarida «Korrupsiyasiz soha» loyihasi amalga oshiriladi. 2020 yil 1 apreldan boshlab loyiha boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etildi. Qoʻshimcha ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qoʻllashga yoʻnaltirilgan «Yoʻl xaritasi» loyihasi ishlab chiqiladi. Unda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligi tartibini takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokinining shaffof va samarali usullarini joriy etish koʻzda tutilgan. Korrupsiyaning namoyon boʻlishi va rivojlanishi bevosita unga qarshi kurashish mexanizmi toʻgʻri shakllantirilganligi hamda doimiy ravishda jamiyatdagi mavjud oʻzgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirilishi yoki umuman yangilanishi bilan bogʻliqdir. Aktivlar deklaratsiyasini joriy qilishdan asosiy maqsad korrupsiyaga qarshi kurash va manfaatlar toʻqnashuvini oldini olish hisoblanadi. Kuplab davlatlar tomonidan aktivlar deklaratsiyasi maʼlumotlarini oshkoraligini taʼminlash korrupsiyaviy muxitning qisqarishiga olib kelgan. Korrupsiya barometri koʻrsatgichining past darajada boʻlishi bevosita mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turtki boʻladi. Natijada, mamlakatning investitsion jozibadorligi ortishiga imkon yaratadi. Xalqaro tajribani oʻrganish natijasida aktivlar deklaratsiyasini yigʻish va qayta ishlashda turli xil institutsional asoslar mavjudligi kuzatildi. Institutsional asoslarni 2 ta - ichki va tashqi koʻrinishga ajratish mumkin. Deklaratsiya maʼlumotlarini qayta ishlash va nazorat qilishda ichki institutsional guruxiga quyidagilar kiradi: • Tashkilot raxbari yoki yuqori turuvchi raxbariyat va raxbar vakolat bergan tuzilmalar. Odatda bu turdagi institutsional asosning koʻrinishi mansabdor shaxslar tomonidan oʻzlari faoliyat olib borayotgan tashkilotning yuqori turuvchi boshligʻiga (yoki maxsus boʻlimiga) deklaratsiya maʼlumotlarini taqdim qilish bilan amalga oshiriladi. Xususan, xorijiy davlatlar tajribasini koʻrib chiqadigan boʻlsak. Litvada davlat xizmatchilari yuqori turuvchi raxbariga, markaziy yoki xududiy maxsus birlashtirilgan boʻlimlardan biriga deklaratsiya maʼlumotlarini taqdim qiladilar. Yuqori mansabdagi shaxslar esa aktivlar deklaratsiyasi maʼlumotlarini Rasmiy etika komissiyasiga topshiradilar.

SHuningdek, xuddi shunday jarayon Estoniyada xam amalga oshiriladi. • Qonun chiqaruvchi organ yoki Vazirlar Maxkamasi tarkibidagi ichki nazorat. Aktivlar deklaratsiyasi Parlament a'zolariga maxsus talablar mavjud bo'lganda Qonun chiqaruvchi organda ichki nazorat tizimi qo'llaniladi. Ushbu talab qonun chiqaruvchi organ boshqa organlardan mustakil bo'lishi kerak degan tamoyilga asoslanadi. Parlament deklaratsiya ma'lumotlarini nazoratini ta'mrshlash va jazo choralari qo'llash ni o'z majburiyatiga oladi. Misol uchun bu kabi tartib Germaniyada Bundestag a'zolari uchun, Irlandiyada Senat a'zolari uchun, Ispaniyada Kongress a'zolari uchun, Buyuk Britaniyada Parlament va Lordlar palatasi a'zolari uchun amal qiladi. SHuningdek, Daniyada aktivlar deklaratsiyasini taqdim qilgan vazirlar uchun Vazirlar Mahkamasi ma'lumotlar bazasida alohida reestr yuritiladi.

1 Aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlarini jamlash va qayta ishlashda asosiy tashki institutsional asoslar bo'lib quyidagilar hisoblanadi: Deklaratsiya ma'lumotlari bilan ishlovchi korrupsiyaga qarshi kurashish (manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashish) bo'yicha ixtisoslashtirilgan maxsus organlar. Sunggi yillarda ko'plab mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha maxsus idoralarning vazifalaridan biri sifatida davlat xizmatchilarining deklaratsiya ma'lumotlari bilan ishlash vazifasi yuklatilmokda. Ushbu sub'ektlar boshqa davlat organlaridan mustakil makomga ega bo'ladilar. Korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasi muhim hisoblangani bois asosan davlat organlarini qamrab olib, fuqarolarning deklaratsiyalari bilan kamdan kam xollarda shugullanadilar. Bu kabi tizimlarni qo'llovchi mamlakatlarga Chernogoriya, Serbiya va Sloveniyani kiritish mumkin. Albaniya va Ruminiya mamlakatlarida asosiy vazifasi korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlari bilan ishlovchi maxsus tashkilot faoliyat olib boradi. Soliq xizmati organlari. Ko'plab xorijiy mamlakatlarda daromadlarni umumdeklaratsiyalash mexanizmi orqali ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash va monitoring qilish soliq xizmati organlariga yuklatilgan. O'z navbatida, mamlakat fuqarosi sifatida davlat xizmatchisi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar tahlil kilinib boriladi. Bu kabi amaliyot postsovet davlatlaridan Armaniston va Qozog'iston Respublikalarini misol qilib keltirish mumkin.

2.Jaxon banki tomonidan 2006 yilda mamlakatlarda aktivlar deklaratsiyasi tatbiq etilishi yuzasidan 147 ta mamlakatning qonunchiligi o'rganilganda, shundan 101 ta davlatda mansabdor shaxslarning daromadlari, xarajatlari va mulklarini nazorat qiluvchi mexanizmini qo'llash bo'yicha normativ xujjatning mavjudligi aniqlangan. Shundan, 31 ta mamlakat deklaratsiya ma'lumotlarini keng jamoatchilikka e'lon qilinishi ma'lum bo'lgan.

3 Shuningdek, Jaxon banki tomonidan yuqoridagi kabi tadqiqotlar 2012 va 2017 yillarda xam 176 mamlakat doirasida o'tkazilgan bo'lib, uning natijasiga ko'ra 2012 yilda 156 ta1 , 2017 yilda 161 ta37 38 39 davlatlarda deklaratsiya mexanizmini tartibga soluvchi qonun xujjatlari mavjudligi aniqlangan. Xorijiy davlatlarining korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini tatbiq etish bo'yicha qonunchiligi tahlili, ushbu illatga qarshi kurashda ko'plab mamlakatlar siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda xorijiy davlatlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini tartibga soluvchi bir qator me'yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilinib, bu boradagi faoliyatning tashkiliy jixatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, deklaratsiya ma'lumotlarini oshkor qilish shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lganligi bois, ushbu jarayonlarni tartibga solishda normativ xujjatlar xususan konstitutsiyada, qonunda yoki eng kamida xukumat karorlarida tartibga solinishi maqsadga muvofiq. Davlat xizmatchilari tomonidan aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini qo'llash ning majburiylikini Konstitutsiyaga kiritilishi no'anaviy holat bo'lib, xatto, ushbu tizim juda yaxshi rivojlangan davlatlarda xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida va Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda xam konstitutsiyaviy maqom bilan belgilanmagan. Biroq, bu xuquqiy jixatdan mansabdor shaxslarning deklaratsiya talablarini ta'minlash uchun eng kuchli shakl hisoblanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Kolumbiyada davlat xizmatchilari o'z xizmat vazifasiga kirishishdan oldin, pensiya yoshiga etganda hamda lavozimdan ozod qilingandan so'ng majburiy tarzda daromadlari va mulklarining umumiy miqdori to'g'risida ma'lumot berishlari Konstitutsiya bilan majburiy qilib belgilangan. Odatda, aktivlarni deklaratsiyalash mexanizmining maqsadi, vazifasi va kamrov darajasiga qarab Qonun yoki qonunosti normativ xujjatlar bilan belgilanadi. Aktivlar deklaratsiyasi tatbiq etilishini va faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarni uch toifaga ajratish mumkin. Xususan, birinchi guruxga davlat xizmatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar tarkibida ko'rsatiladi (misol uchun, "Korrupsiyaga qarshi kurashish tugrsida"gi Qonunda), ikkinchi guruxda maxsus deklaratsiyalashni tartibga soluvchi karor, farmonlar asosida tartibga solinadi ("Daromadlar, xarajatlar va mulk deklaratsiyasi to'g'risida"gi Prezident Karori), uchinchi guruxda esa, korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuviga qarshi 37Ivana Rossi and others. Using asset disclosure for identifying political exposed persons. The World Bank Group. 2012. http://siteresources.vvorldtenk.org/FINANCIALSKCTOR/ResourcesAJsing_ADJo_r_PEP_identification.pdf 38 Ivana M. Rossi and others, Getting the Full Picture on Public Officials A How-to Guide for Effective Financial Disclosure, World Bank, 2017 39 KolumbiyaKonstitutsiyasi (1991 y.), 122-modda. [http: xonfnuk'r.](http://xonfnuk.r)

nchmond.edu achmwdocs Colombia const2.pdf qaratilgan maxsus normativ xujjatlar (“Davlat xizmatchisining axloq etikasi to‘g‘risida”gi Qonun) bilan tartibga solinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini tatbiq etgan davlatlarda ushbu mexanizmning samaradorligiga qarab 3 guruxga ajratildi: Birinchi gurux deklaratsiya mexanizmini qo‘llash bo‘yicha samaradorligi boshqa davlatlarga nisbatan yuqori bo‘lgan davlatlar (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Singapur, Koreya Respublikasi va boshk.). Ushbu guruxga kiruvchi davlatlar deklaratsiya ma‘lumotlarni oshkoraligini ta‘minlanganligi, elektronlashtirilganligi, noqonuniy daromad aniqlanishida keng qo‘llanilishi bilan alohida ajralib turadi. Xususan, AQSHda 1978 yilda qabul qilingan “Davlat mansabdor shaxslarining etikasi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan bugungi kunga qadar AQSHning uchta federal xokimiyati, ya‘ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatining davlat xizmatchilari aktivlar deklaratsiyasini taqdim etishi belgilab qo‘yilgan. 1 Xususan, ushbu Qonunning 101-moddasiga asosan prezident, vitse prezident, Kongress a‘zolari, federal darajadagi sudyalari, prezident tayinlagan mansabdor shaxslar va boshqa mansabdor shaxslar aktivlar deklaratsiyasini taqdim etishlari majburiydir 40, 41 . Shuningdek, deklaratsiyada quyidagi ma‘lumotlarni taqdim etilishi kerak (102- modda): - jami daromadlar, jumladan, dividendlar, depozit bo‘yicha foizlar, mulk hisobidan olingan daromadlar va gonorarlar; - nodavlat tashilotlaridan olingan moliyaviy va boshqa daromadlar; -jismoniy va/yoki yuridik shaxslardan 50 AQSH dollaridan yuqori bo‘lgan sovg‘alar; - karzlar, jumladan, moliyaviy va boshqa majburiyatlar; - turli xil tashkilotlar bilan kelgusida bajariladigan ish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘zilgan shartnoma summalari; - yaqin oila a‘zolari (eri, xotini, (voyaga etmagan) farzandalari va b.) ish faoliyat olib borayogan yoki aloqasi bo‘lgan barcha korporatsiya, kompaniya va biznes tashkilotlarining ruyxati; - davlat xizmatchisining, shu jumladan turmush o‘rtog‘ining va farzandlarining barcha kreditorlari Hamda ko‘chmas mulklari ruyxati; - mavjud mol-mulking kelib chiqish manbalari va qiymati to‘g‘risidagi ma‘lumot; -depozitlar, olingan va berilgan moddiy yordam hamda olingan kreditlar to‘g‘risida ma‘lumot. Mansabdor shaxslarning aktivlar deklaratsiyasi ma‘lumotlari 6 yilgacha ommaga ochiqligi ta‘minlanishi belgilab qo‘yilgan. Biroq, ayrim istisno tarzidagi shaxslar mavjud, ular jumlasiga, razvedka faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mansabdor shaxslarning (agar Prezident ularning ma‘lumotlarining oshkoraligi milliy xavfsizlikka taxdid yuzaga keltiradi deb belgilasa) va sudyalarning (ish faoliyatini olib borish uchun shaxsiy va oila a‘zolarining xavfsizligi maqsadida) ma‘lumotlari ommaga oshkoraligi cheklangan. Taqdim qilingan ma‘lumotlar maxsus biriktirilgan shaxs yoki komissiya a‘zolari tomonidan o‘rganib chiqiladi. Kamchiliklar aniqlangan takdirda, aniqlashtirish maqsadida qo‘shimcha

ma'lumotlar so'raladi yoki suxbat o'tkazilishi mumkin. Jiddiy qonunbuzarlik aniqlangan takdirda jinoyat ishi ko'zgatiladi. Shuningdek, AQSHda xukumat amaldorlari va parlament a'zolari o'zlarining hamda yaqin qarindoshlari (farzandlari, turmush o'rtog'i) va ota-onalarining xarajatlari va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Odob-axloq boshqarmasiga taqdim etishlari shart qilib qo'yilgan. 40 OECD, Asset declarations for public officials: A tool to prevent corruption, 2011. p22, <http://dx.doi.org/10.1787/9789264095281-en>; 41 Titles I-V ethics in Government Act of 1978 <https://legcounsel.house.gov/Comps/Ethics%201n%20Government%20Act%20of%201978.pdf> Gurjiston Respublikasida mansabdor shaxslarning daromadlari va mulklarini nazorat qilish mexanizmi 1998 yildan boshlab tatbiq etilgan. Gruziyada deklaratsiya ma'lumotlarini yuqori lavozimdagi mansabdor shaxslar taqdim qiladilar. 2010 yil 1 fevraldan boshlab deklaratsiyani taqdim qilish kog'oz ko'rinishidan elektron ko'rinishga o'tkazilgan. Mansabdor shaxslar va ularning oila a'zolari turar va noturar mulklarini (avtotransport vositalarini, zargarlik buyumlarini va boshqa 6000 AKSP dollaridan yuqori bo'lgan Qimmatbaxo buyumlarini), bankdagi hisob rakamlarini, naqd pul miqdori, sovtalar, xarajatlari va aksiyalarini ko'rsatishlari shart.^{42 43} Bugungi kunda, 5600 dan ortiq yuqori darajadagi mansabdor shaxslar elektron ko'rinishdagi aktivlar deklaratsiyasini taqdim qilib kelmoqda. Deklaratsiya ochiq va oshkoraligi ta'minlangan bo'lib, 59000 dan ziyod deklaratsiyalar <https://declaration.gov.ge> veb saytida e'lon qilingan.

Deklaratsiya tizimini muntazam ravishda rivojlantirib borish siyosati Gruziya davlati tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2015 yilda "Davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, 2017 yil 1 yanvardan boshlab deklaratsiya ma'lumotlarini nazorat va tahlil qilish ishlarini Davlat xizmatlari Byurosi amalga oshirmoqda. Aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlarini taqdim etmagan yoki o'z vaqtida taqdim etmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik hamda ma'lumotlarni yashirganligi yoki soxtalashtirganligi aniqlanganda jinoiy javobgarlik jazo choralari qo'llaniladi. Shuningdek, daromad, xarajat va mulklarni nazorat qilish mexanizmlar samaradorligi yuqori bo'lgan Osiyo mamlakatlaridan Singapur, Malayziya, Yaponiya va Koreya Respublikasini ko'rsatish mumkin. Xususan, Koreya Respublikasida 1981 yildagi "Davlat xizmati etikasi to'g'risidagi 3520-sonli Qonuniga asosan 1993 yildan boshlab davlat xizmatchilari orasida korrupsiyaga va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda, ularning daromad, xarajatlari va mulklarini nazorat qilish mexanizmi hisoblanuvchi aktivlar deklaratsiyasi amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu Qonunning 4-modsasiga asosan, barcha yuqori darajadagi mansabdor shaxslar ularning oila a'zolari moddiy va

nomoddiy mulklari to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda tashkilotlardagi ulushlari yoki aloqadorligini ma'lum qilishlari kerak. Ma'lumotlarni ko'rsatish belgilangan ko'rsatkichdan ortgan qiymatliklarni deklaratsiyada ko'rsatilishi lozim. Xususan, naqd pul, bank hisob rakamlari Qimmatli kog'ozlar 10.900 AQSH dollaridan, oltin, platina, Qimmatbaxo toshlar qiymati 5.450 AQSH dollaridan ortiq bo'lganda hamda yiliga 10.900 AQSH dollarida foyda keltiradigan nomoddiy mulklar aktivlar deklaratsiyasida ma'lumotlarida taqdim etilishi kerak. 44 45 Taqdim etilgan deklaratsiyalar Axloq qo'mitasi tomonidan tekshiriladi. Shuningdek, mansabdor shaxs va uning oila a'zolari deklaratsiyalari taqdim qilingan kundan boshlab keng jamoatchilikka oshkora qilinishi 30 kundan kechikmasligi kerak. Saylovlarda ishtirok etmoqchi bo'lgan fuqaro, o'z nomzodini e'lon qilishdan oldin aktivlar deklaratsiyasini taqdim etgan bo'lishi zarur 46 . Ikkinchi gurux deklaratsiya mexanizmini tatbiq etgan lekin samaradorligi urta darajadagi (CHili, Argentina, Estoniya va boshk.) davlatlar. CHilida aktivlar deklaratsiyasi 5 yanvar 2006 yildagi "Davlat funksiyalarini bajarayotgan shaxslarga aktivlar deklaratsiyasini qo'llash to'g'risida"gi 20.088-sonli Qonunga binoan tatbiq etilgan⁴⁷. Ushbu Qonunning 1 moddasiga asosan, xokimiyatning 42

Asset declarations <https://wvAv.right2info.org/testing/deleted-stutl/asset-declarations#section-15> 43Реформы в сфере борьбы с коррупцией в странах Восточной Европы и Сешральной Азии, Достигнута ли проблемы 2013-2015 GG. F OESR 2016 44 Korea, <https://star.worldbank.org/sites/star/files/korea-ad-country-profile.pdf> 45Public service Ethics Act of Korean Republic, <http://unpanl.un.org/intradoc/groups/public/documents/apcity/unpan019099.pdf> Asset declarations <https://vwww.right2info.org/testing/deleted-stuff/asset-declarations/> 47 Reglamento para la declaracion Patrimonial de bienes de la, <https://uv.right2info.org/> barcha (sud, ijro, qonun chiqaruvchi) tarmoklaridagi eng kamida bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat olib borayotgan raxbar xodimlardan boshlab yuqori darajadagi mansabdor shaxslargacha tatbiq qilinadi. Deklaratsiya taqdim etilayotganda mansabdor shaxsning egalik, sherikchilik, ishonchnoma va ijara huquqi asosidagi barcha kuchmas va transport mulklarini, shuningdek ksmmatli kog'ozlarini (aksiya, obligatsiya, bankdagi hisob rakamlardan olikgan foizlarni, boshqa shaxsga berilgan karz xssobidan olingan daromadlarni) hamda Chilida va xorijiy mamlakatlarda ruyxatdan utgan korxonalar, tashkilotlardagi ulushini mulk yoki pul ko'rinishi bo'lishidan kat'i nazar miqdorini ko'rsatishga majbur. Chili amaliyotining boshqa davlatlardan farqli jixati shundaki, unda agar davlat xizmatchisining ma'lumotlari, ya'ni ish joyi, lavozimi shuningdek mulkida o'zgarish bo'lmasa, deklaratsiya ma'lumotlarini majburiy taqdim qilish muddati 4 yilda (4- yilning oxirgi 30 kunida taqdim qilish kerak) bir marotabadir. Agar o'zgarishlar yuzaga kelsa, o'zgarish kundan boshlab 30 kun ichida

deklaratsiya ma'lumotlarini Markaziy yoki xududiy Moliya boshqarmasiga taqdim qilinadi. Deklaratsiya 2 nusxada taqdim kilinib, bir nusxasi davlat xizmatchisiga qaytarib beriladi. Davlat xizmatchisi ma'lumotlari yangilangandan so'ng deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim qilmaganligi uchun 5-15UTM (CHilida soliqqa tortish maqsadida qo'llaniladigan pul birligi), agar deklaratsiya majburiy muddatidan kech topshirilsa 10-30 UTM miqdorida jarimaga tortiladi. Argentinada aktivlar deklaratsiyasini 1999 yildagi "Mansabdor shaxslarning etikasi to'g'risida"gi № 25.188 - sonli Qonuniga asosan tartibga solinadi. Unga ko'ra, korrupsiyaga va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda uchta davlat xokimiyati, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatining davlat xizmatchilari hamda saylovga o'z nomzodini qo'ygan shaxslarni qamrab olgan.

Meksikaning FUNDAR tashkiloti hisobotida, Argentina 2000 yilda aktivlar deklaratsiyasini qabul qilishning elektron ko'rinishda qabul ksluvchi platformami joriy qilganini ko'rsatgan. Ushbu tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra, elektron platforma 36000 dan ortiq federal darajadagi mansabdor shaxslarning ma'lumotlarini jamlash imkonini beradi. Platformaga qabul qilingan deklaratsiyalarni korrupsiya ga qarshi kurash maks ad i da qayta ishlash, tahlil kshtish va tekshirish uchun ikki davlat organi javobgar xssoblanadilar. Bular, Korrupsiyaga qarshi kurash organining, Aktivlar deklaratsiyasi bo'limi (the Asset Declaration Unit) va Tergov Departamenta (the Investigations Department) xssoblanadi1 . Umuman olganda, aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlari Korrupsiyaga qarshi kurash byurosiga taqdim etiladi. Dastlabki bosqichda, Aktivlar deklaratsiyasi bo'limi xodimlari korrupsion alomatlari mavjud deklaratsiyalarni sinchkovlik bilan ma'lumotlarning xaqikiyligi tekshiriladi. Agar korrupsion alomatlar mavjud bo'lsa keyingi boskschda deklaratsiyalarni Tergov Departamentam taqdim etiladi. Keyingi bosqichda Tergov Departamenta mansabdor shaxsga nisbatan surishtiruv -tergov ishlarini olib boradi. SHuningdek, elektron platforma joriy etilgandan boshlab ma'lumotlarni oshkor etish bo'yicha 1000 dan ortiq jurnalistlar tomonidan so'rovnomalar qabul qilingan. Mansabdor shaxslarning elektron platformaga aktivlar deklaratsiyani taqdim etish intizomi 96%ni (dastlabki yillarda 67%ni) tashkil etmokda. Argentinada "Mansabdor shaxslarning etikasi to'g'risida"gi № 25.188 - sonli Ksnuniga asosan mansabdor shaxslarning oshkor qilingan ma'lumotlari noqonuniy, tijorat va jinoyatchilik yo'lida foydalanish ta'qiqlanadi. Jurnalist surishtiruvi bundan mustasno. resources/publications/asset-declarations/chil e Jaw-no.-20.088-establishmg-an-obligation-for-authorities-exercismg- publiclimctions 'Fighting corruption by improving Transparency and access to information https://vwww.right2mfo.org/resources/publications/assetdeclarations/fundar_figliti ngcoiTuptionbyimprovingtrans parencyandaccesstomformation_2012 Aktivlar

deklaratsiyasi mansabdor shaxs yangi lavozimga tayinlangan kundan boshlab va har yili ushbu sanadan keyingi 30 kun ichida, undan tashqari, lavozimdan ozod etilgan kundan boshlab 10 ish kunida tavdim etishlari lozim. Aktivlar deklaratsiyasida shaxsiy, oila a'zolari tarkibi to'g'risida, ish joyi to'g'risida, yil boshi va yil oxiriga kuchmas mulki to'g'risidagi, daromadlari va xarajatlari manbasi va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Argentinada mansabdor shaxsning oshkora qilingan aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlarini tekshirishda fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning o'rni yuqori. Argentinaning LaNacion jurnali tomonidan o'zining rasmiy saytida ishga tushirilgan loyixaga ko'ra argentinalik mansabdor shaxslarning aktivlar deklaratsiyasi ma'lumotlari jurnalistlarga erkin foydalanish uchun taqdim qilinadi. Unga ko'ra, xdr bir mansabdor shaxsning daromadlari, xarajatlari, kuchmas mulklari va transport vositalari soni va summasi yillar kesimida o'zgarishi tendensiyalari ko'rsatib boriladi. Bu esa, mutaxassislar tomonidan, korrupsiyaga qarshi kurashda samarali mexanizm sifatida qarshi olingan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Korrupsiyaga qarshi kurash sub'ektlarini sanab o'ting.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashda idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolarning faolligini oshirish.
4. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari.
5. Korrupsiyaga qarshi kurash fuqarolik jamiyati institutlari to'laqonli faoliyatining kafolati sifatida.

ADABIYOTLARRO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
3. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.
4. Mualliflar jamoasi. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo'llanma) – T.: "Info Capital Group", 2019. – 432 b.
5. O'tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O'quv qo'llanma) – T.: "Universitet", 2018. 21 b.t.
6. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.
7. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strany. Grajdanskoe

4-mavzu: O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari

Reja:

1. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi davrida korrupsiyaga qarshish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar. Yangi taraqqiyot bosqichida mamalakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

2. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoning mazmun-mohiyati va undan kelib chiqadigan vazifalar.

3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va istiqbolli rejalarning ishlab chiqilishi.

Fuqarolik jamiyati muammolarini o'rganish quyida keltirilgan bir qator jihatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi jamiyatdagi ishsizlik masalasini hal etishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish yoshlarni ijtimoiy reallik sifatida va ularning yosh bilan bog'liq psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularni ma'naviy va vatanparvar hamda barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan davlat dasturlari ijrosini ta'minlash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellarini hamda ta'lim va tarbiya berishning sotsiologiya muammolarini o'rganish hamda ilmiy va amaliy echimlarini ishlab chiqish mamlakatimizda inson huquqlari va inson manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan normalar hamda xalqaro hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etish jamiyatda qonunni hurmat qiladigan erkin fuqaro shaxsni shakllantirish asosida o'zining haq-huquqlarini yaxshi tushungan, o'z bilimi va layoqatiga ishongan, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglaydigan har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tahliliy o'rganish, bu sohada barcha siyosiy qarashlarni fikr-mulohazalarini tadqiq qilish asosida o'rganish natijalariga muvofiq ilmiy va amaliy jihatdan asoslantirilgan taklif, tavsiya va echimlarini ishlab chiqish Vatan, oila, mahalla xalqning qadr-qimmatini o'z o'rniga qo'yadigan, bugungi zamon talablariga javob beradigan yuksak saviyadagi rivojlangan shaxslarni tarbiyalash vazifasini hal etishning ilmiy-amaliy yo'nalish-larini ishlab chiqish va

real hayotga tatbiq qilish orqali mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish dasturlarini ishlab-chiqishda faol ishtirok etish. Bugungi kunda davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biri jinoyatchilikni, jumladan, korrupsiya jinoyatlarini oldini olishga qaratilgan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish orqali jinoyatlar ichida jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun eng xavfli bo'lgan illat korrupsiyaga qarshi kurashish ishlariga jamoatchilikni jalb qilish hamda bu sohaga davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini ta'minlaydi.

“Mamlakatimizda joriy yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha ko'rib chiqilgan sud ishlari. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda 28730 ta ish ko'rib chiqildi: 590 kishi oqlandi va rehabilitatsiya qilindi; 2449 kishi sudzalidan ozod qilindi; 1597 kishi shartli ravishda hukm qilindi. Ma'muriy sudlarda: 16567 ta ish ko'rib chiqildi: 12525 nafar fuqaroning huquqi tiklandi; 43605 kishining ma'muriy huquqbuzarligiga doir 42978 ta ish ko'rib chiqildi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda 171889 ta ish ko'rib chiqildi: 62567 ta ish sayyor sudlarda ko'rildi. Iqtisodiy sudlarda 320983 ta ish ko'rib chiqildi: 8.8 trln. So'm moddiy kompensatsiya undirish bo'yicha hukm chiqarildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari huquqini himoya qilishga doir 32097 ta ish ko'rib chiqilib, ular foydasiga 772,7 milliard so'm undirildi[1]”.

Sudlar tomonidan qabul qilingan har bir qaror, eng avvalo, adolatli, qonuniy va asosli bo'lishi shartligi bu Davlatimiz rahbarini hamda amaldagi qonun-larning talabi bo'lib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi birinchidan, jamiyatda yuz berayotgan tub islohotlar sharoitida korrupsiyani oldini olishning huquqiy-ijtimoiy va siyosiy mohiyatini tushun-tirishga qaratilgan tashviqot ishlarini tashkil etishda hamda ijtimoiy sherikchilik, jamoatchilik nazorati, davlat organlari huzurida tashkil etilgan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi kengashlar bilan o'zaro hamkorlikka doir masalalar bo'yicha tadbirlar tashkil etish hamda ijtimoiy sheriklik byurtmalari bo'yicha takliflar tayyorlashda muhim manba hisoblanadi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy va amaliy seminarlarni tashkil etishda ushbu qo'llanmadan foydalanish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, xalqaro tajribani hisobga olgan holda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat va jamiyat rivojlanishiga xizmat qilayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar tajribasini umumlashtirish asosida ular faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish masalalarida hamkorlik qilish ishlarini tashkil etishda

o'quv qo'llanma materiallaridan foydalanish NNT faoliyatini amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga muvofiq rivojlanishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan qonun hujjatlari loyihalari bo'yicha tegishli va asosli takliflar berishda foydalanish mumkin.

Beshinchidan, O'zbekistonda ma'rifiy islomni rivojlantirish, buyuk ajdodlarimizning din sofligini ta'minlashga qo'shgan ulkan hissasini o'rganish va targ'ib etish yuzasidan amalga oshirilayotgan xayrli ishlarni mazmun mohiyatini hamda muqaddas islom dinning bag'rikenglik tamoyillarini, ma'rifiy qadriyatlarini targ'ib qilish, islom dinining insonparvarlik mohiyatini asrash, diniy-ma'naviy merosni tadqiq etish, xavf-xatarlarga qarshi kurashish borasida O'zbekistondan chiqqan buyuk allomalarning boy ma'naviy merosidan hamda bu soha bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish mamlakatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda fuqarolik jamiyatini yanada taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan davlatni xalqqa va jamiyatga xizmat qiluvchi institutga aylantirishning oltin qoidasi yaratilganligi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy hayotga tadbiq qilish masalalarini hal etishda fuqaro – jamiyat – davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni huquqiy asoslari va echimlarini jamiyatni rivojlantirish qonuniyatlariga muvofiq takomillashtirilgan holda ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ettinchidan, mazkur o'quv qo'llanma fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishga qaratilgan muamolarni o'rganuvchi jamiyatshunos olimlar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchilari, Tinglovchilari va NNTlar faoliyatini tashkil qilgan va yuritayotgan xodimlar doirasi uchun mo'ljallanganligini qayd etaman. Mamlakatimizda shiddatli ravishda xalq va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o'zgarib boruvchi sharoitlariga insonlarni va ayniqsa yoshlarni tayyorlash, ularning kasbiy bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishni yo'lga qo'yish, tadbirkorlik-tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, ularning tadbikor sifatida iqtisodiy-ijtimoiy nuqtai-nazarini ishlab chiqishga qaratilgan bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish, kelajak rejalarni amalga oshirishga qaratilgan biznes loyihalariga innovatsion loyihalarni joriy qilishni nazarda tutgan bilimlarini yuksaltirish o'z navbatida ularning ijtimoiy manfaatlarini, ehtiyojlarini, kelajakdagi

istiqbollarini belgilab olish va ro'yobga chiqarish bugungi kunda shiddatli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarning talabidir.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish jamiyat taraqqiyotini kafolati ekanligi, O'zbekiston Respublikasida NNT-larni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasidagi qonunchilikning takomillashtirishni huquqiy mohiyati va iqtisodiy-ijtimoiy, ma'rifiy asoslari keyingi yilda Prezidentimiz SH.Mirziyoev rahbarligida ishlab chiqilganligi natijasida mamlakatimizda Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Obod qishloq" va "Obod mahalla", "Har bir oila - tadbirkor" hamda "Yoshlar kelajagimiz" sog'liqni saqlash sohasida tasdiqlangan dasturlar doirasida amalga oshirilgan ishlar jamiyat a'zolari hisoblangan barcha fuqarolarimiz qalbida Ona-Vatan bilan faxrlanish hamda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etish, Vatan va islohotlar taqdiriga daxldorlik tuyg'usi ishonchli asosda shakllanishiga xizmat qilganligini asosli ravishda yoritib berilgan. SHuningdek, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining barpo etishning asosiy shartlaridan biri fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda ko'ppartiyavilik muhitini mustahkamlash va ularning maqsad hamda vazifalarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan shart-sharoitlarni davlat tomonidan yaratilishi jamiyatni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishiga olib kelishi muallif tomonidan ishonarli tadqiq va tahlillar bilan ko'rsatilgan. Bundan tashqari, innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq qilish: fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – kafolati sifatida Haraktlar strategiyasida belgilab qo'yilganligi asosida maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirilishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning yuksaltirishga xizmat qilishini asosli tahlillar va dalillar bilan yoritilganligi ushbu o'quv qo'llanmaning ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda yozilganligini bildiradi. Bizga ma'lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqurlashtirishga sabab bo'ladigan omil sifatida baholanadi. Ko'pchilik ekspertlar tomonidan jamiyatda korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo'llash samarali hisoblanmasligi qayd etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda muntazam ravishda izchil amalga oshirilishi yaxshi natija berishi mumkin. Har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob'ekti sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralari namoyon bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi

kurashish ishlarini tashkil etishda quyidagi-larni inobatga olish lozim deb hisoblaymiz:

har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun hujjat-larini zamon va islohotlar talablari darajasida takomillashtirish;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimiz ongida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni muntazam ravishda shakllantirib borish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga izchil tadbiriq qilish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish va oqibatlarini keng jamoatchilikka tushuntirish, korrupsiyaga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va bu sohada xalqaro hamkorlikni izchil yo'lga qo'yish.

Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada jamiyat a'zolarini mazkur davlatning organlariga bo'lgan ishonchiga putur etkazishga olib keladi.

“Jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim. Nega deganda, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslar qariyb 25 yil oldin qabul qilingan. O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi dunyoqarashi o'zgardi. SHu sababli bu kodekslar bugungi kun talablariga javob bermay qoldi. Ma'lumki, qonunchilikda jazoni og'irlashtirish yoki engillashtirishga oid moddalar bor. Lekin ular tergovchi yoki sud'yaning ixtiyoriga, ya'ni inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezoni buziladi. Shuning uchun jinoyat va jinoyat protsessual qonunchilikni tubdan qayta ko'rish zarur”[2].

Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslarini rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish hamda bugungi kunda shiddatli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarni talablariga muvofiq Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslar loyihasi norma ijodkorligi asosida ishlab chiqish jamiyatda jinoyatlarni shu jumladan korrupsion jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan normalarni mustahkamlash jamiyatda jinoyatlarni hamda korrupsion jinoyatlarni oldini olinishiga xizmat qiladi. Hozirgi glabollashuv davrida yoki jarayonida korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida mavjudligini ko'rish

mumkin. Ammo bu - barcha davlatlarda ham korrupsiya bir xil degan ma'noni anglatmaydi. Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turli xil bo'lib, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi hamda taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga barham berishga qaratilgan ma'muriy normalar majmui ishlab chiqilgan. XX asrning 90 yillaridan xalqaro va mintaqaviy doiralarda korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq xalqaro shartnomalar qabul qilina boshlandi. Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ko'p tomonlama xalqaro hujjatlar qabul qilingan:

- Amerika davlatlari tashkiloti tomonidan 1996 yil 29 mart kuni qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Amerika konvensiyasi” (4);
- Evropa ittifoqi Kengashi tomonidan 1997 yil 21 noyabrda Evropa hamjamiyatining mansabdor shaxslariga yoki Evro ittifoqiga a'zo davlatlarning mansabdor shaxslariga daxl qilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi (5);
- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan 1997 yil 21 noyabrda qabul qilingan Xalqaro tijorat amaliyotlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi (6);
- Evropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 yil 27 yanvar-da qabul qilingan “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida”gi Konvensiyasi (7);
- Evropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 yil 4 noyabr-da qabul qilingan “Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi to'g'risida”gi Konvensiyasi;
- 2003 yil 12 iyuldagi Afrika Ittifoqining “Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida”gi Konvensiyasi;
- BMTning “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka hamda korrupsiyaga qarshi kurash” Konvensiyasi;
- MDH doirasida esa unga a'zo davlatlar tomonidan 2003 yil 15 noyabrdagi qarorga muvofiq, “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida”gi qonun qabul qilinganligi ham korrupsiyani jamiyat rivojlanishiga qarshi qaratilgan illat sifatida uning qanchalik xatarli ekanligini ko'rsatadi. Davlat hokimiyati organlarining korrupsiyaning zararli ta'siridan saqlash zaruriyati AQSH hukumatini korrupsiyaga qarshi kurashni XIX asrdayoq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashga olib kelgan. 1978 yilda AQSH Kongressi “Hukumatdagi axloq

to'g'risida"gi qonunni qabul qilgan. Ushbu Qonunning vazifasi davlat amaldorlari va muassasalari haloliligini saqlash hamda bunga imkoniyat yaratishdan iborat. Kanadaning jinoyat qonunchiligida "mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish", "Hukumatni aldash", "mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan ishonchni suiste'mol qilish" mansabdorlik jinoyatlari hisoblanishi belgilab qo'yilgan. 1985 yil Kanadada davlat xizmatchilarining xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlari o'rtasidagi ziddiyat yuzaga kelgan holda ular amal qilishi shart bo'lgan xulq-atvor qoidalarini o'zida mujassam qilgan Kodeks qabul qilingan. Kanadalik qonun ijodkorlarining fikriga ko'ra, ushbu qonunlardan ko'zlangan maqsad – davlat apparati va davlat xizmatchilarining halolligiga jamiyatning ishonchini oshirishga qaratilganligini qayd etishadi. Davlat xizmati tizimida korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashish va barham berish maqsadida Fransiyada XX asrning 90 yillarida saylangan barcha davlat xizmatchilari va korrupsiya ta'siriga berilishi mumkin bo'lgan jamoat xizmati kadrlariga o'z mol-mulki va daromadlari haqida tegishli davlat idoralariga ma'lumot berish majburiyatini yuklash to'g'risida qaror qabul qilingan. SHuningdek, davlat apparati yuqori martabali xodimlarining daromadlari va mol-mulki haqidagi deklaratsiyalar keng miqyosda oshkor etilishini ta'minlaydigan huquqiy va tashkiliy asoslar qonun ijodkorligi asosida yaratilgan.

Korrupsiyani oldini olishning nazariy poydevori "Ta'lim, xabardorlik va targ'ibot" (Education, Awareness and Advocacy) tamoyillariga asoslanib, amaliy tomondan esa "samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlik" (effectiveness, transparency, accountability) tamoyillari asosida aniq davlat siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bu borada davlat siyosati dunyoda (xususan, Singapurda) "one size fits all" ("barcha uchun bir xil mezon") tamoyillari ishlab chiqilgan va o'zining ijobiy natijasini bergan[3].

"Respublika bo'yicha 2018 yilda 1561 nafar turli toifadagi mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bularning aksariyatini – 580 nafar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbarlari, 257 nafari – ta'lim sohasi, 83 nafari – sog'liqni saqlash tizimi, qolgan qismini boshqa soha vakillari tashkil qiladi. Jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 39 nafari respublika, qolganlari viloyat tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelgan. Jinoiy javobgarlikka tortilgan bu xodimlarning 821 nafari o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, 138 nafari pora olish va berish, qolganlari esa boshqa mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgar bo'lgan"[4]. Mazkur tahliliy materillardan ham ko'rinib turibdiki, keyingi ikki yilda mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish

ishlari davlatning vakolatli organlari tomonidan izchil ravishda amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri korrupsiyaga qarshi tizimli ravishda kurashish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va amalga oshirish strategiyasi xalqaro huquqiy talablar asosida belgilandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) qo'shilishi jamiyat taraqqiyotini amalga oshirishning milliy mexanizmi sifatida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Prezidentning "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-son qarori qabul qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning alohida institutsional tuzilmasi sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etilib, hozirgi kunda mazkur idora UNODC (BMTning Narkotik va jinoyatchilik bo'yicha idorasi), UNDP (BMT taraqqiyot dasturi) va OSCE (Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti) kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha fuqarolarning daxldorligini kuchaytirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturining qabul qilinishi bu borada davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilab berilishi davlat bilan jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish izchil davom ettirishga shart-sharoitlar yaoatmoqda.

Fuqarolik jamiyati bir vaqtning o'zida muayyan g'oya va mafkura, aniq asosga ega bo'lgan voqelikni qamrab olmasada uning amaliy xarakteri bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki bunday o'z-o'zini institutsional boshqaruv shakli bir tomondan, shaxsiy erkinlik, o'zaro munosabatning turi va predmetini erkin tanlashga imkon beruvchi ijtimoiy munosabatlarning aniq sohasi va qizqishlarni sub'ektiv qondirish usuli sifatida talqin qilinsa, boshqa tomondan, yuzaga kelgan aniq voqea-hodisaga o'ziga xos - kuchli va mustaqil shaxs nuqtai nazaridan yondoshish imkonini beruvchi ijtimoiy tizim sifatida rivojlanib boradi. Masalan, AQSHda fuqarolik jamiyatining dastlabki rasmiy institutlari diniy uyushmalar, maktablar va turar joyi bo'yicha havfsizlik va tartibni ta'minlovchi ijtimoiy guruhlar sifatida faoliyat olib borgan. G'arbiy Evropada esa bundan farqli ravishda fuqarolik jamiyati institutlari iqtisodiy sohada o'z-o'zini namoyon qilib, bu yangi va eski tipdagi, oldingi uyushmalar va korporativ birlashmalar asosida tashkil topgan mustaqil bozor tashkilotlari sifatida faoliyat yuritgan. Germaniyada fuqarolik jamiyati institutlarining o'ziga xos faoliyati gildiyada o'z aksini topib,

o‘z vaqtida hunarmand va savdogarlarning o‘z-o‘zini himoya qilish va shaharlarni boshqarishga o‘ziga xos ta’sir o‘tkazishning dastlabki shakli sifatida qaror topgan. O‘z navbatida evropaning Florensiya, Paduyava boshqa shaharlari o‘zini gildiyashahar(townsmen) sifatida shakllantirgan¹.

Hozirgi davrda rivojlangan G‘arb davlatlarida faoliyat olib boraётgan fuqarolik jamiyati institutlari demokratik siyosiy faollikni nazarda tutgan holda davlat ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bunda siyosiy partiyalar ta’siri va o‘z-o‘zini boshqarish institutlari faolligi tobora ortib boraveradi. YA’ni shaxs erkinligi oliy qadriyat sifatida baholanadi. Masalan, AQSH, Buyukbritaniya, Avstraliyada mazkur prinsip sabab davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi. Kuchli davlat an’anasi SHarq davlatlari kabi ko‘pgina G‘arb mamlakatlariga ham xos, ayniqsa Germaniya davlat boshqaruv tizimida bu holatga bevosita guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni Germaniya ijtimoiysiyosiy hayotida davlatning roli jamiyat hayotini barqarorlashtirishdagi ahamiyati kuchli hisoblanadi. Shu boisdan ham davlat tuzilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda milliy birdamlik g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham shaxsiy erkinlik davlat qudratiga bog‘lab talqin etiladi. Unga ko‘ra davlat kuchli bo‘lsagina, shaxs qiziqishlari va erkinligini himoya qila oladi. Ya’ni, davlat tartibi g‘oyasi, milliy birdamlik shaxs erkinligidan ham ustun qo‘yiladi. Bunday xokimiyat boshqaruv tizimi Germaniyadan tashqari Fransiya va YAponiyaga mamlakatlariga xosdir. SHuningdek, Germaniyada fuqarolik jamiyati sohasida va uning faolligini oshirishda fuqaroga nodavlat sektorni rivojlantirishning muhim maqsadli ob’ekti sifatida e’tibor qaratiladi. Germaniyada muhim siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning hal etilishida hamda insonning qonuniy huquq va erkinliklari himoya qilinishidafuqarolik jamiyati institutlari muhim rol o‘ynaydi. Bunda davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining ta’minlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining muhim vazifasi deb qaraladi. Davlat tizimlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishida nohukumat tashkilotlarining rolini kuchaytirish davlatning jamiyat bilan samarali o‘zaro aloqada bo‘lishi mexanizmlarini mustahkamlaydi².

Germaniyada fuqarolarning davlat organlari faoliyati to‘g‘risida erkin axborot olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish ko‘p qirrali va murakkab jaraèn sifatida baholanadi. SHuning uchun ham mazkur jaraènlr axborot erkinligiga oid huquqiy mexanizmlar asosida tartibga solinadi. Chunki

¹ Ашин Г.К., Кравченко С.А., Лозаннский Э.Д. Социология политики. Сравнительный анализ российских и американских политических реалий: Учеб. пособие для высших учебных заведений. - М.: Экзамен, 2001. –С. 608.

² Курбатов В.И. Современная западная социология: Аналитический обзор концепций: Учеб.пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. – 416с.

bugungi kunda ommaviy axborot vositalari xodimlarining zamonaviy axborot bozori sharoitida jamiyat oldidagi mas'uliyati hamda javobgarligini yanada chuqur anglashiga xizmat qiluvchi zarur mexanizmlarni ishlab chiqish muhimdir. SHuning uchun ham 2003 yilning mayida Germaniyada oila, keksa fuqarolar, aëllar va èshlar ishlari bo'yicha qo'mitaning kichik bo'limi (Fuqarolik faolligi bo'yicha kichik qo'mita)tashkil etilgan. Uning vazifasiga Germaniyaning fuqarolik jamiyatini tadqiq etish tavsiyalarini bajarishga ko'maklashish hamda o'z yo'nalishidagi qonun loyihalari va tashabbuslarini muhokama qilish kiradi. SHuningdek bu mamlakatda aholining davlat, tijorat va jamoat tashkilotlariga bo'lgan ishonchi uchinchi sektorni rivojlantirishning muhim mezonlari hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jaraënidagi «birinchi» va «uchinchi» sektorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni institutsionallashtirish har ikki tomon uchun foydali hisoblanadi. Bunday hamkorlik siyosatini belgilab beradigan hujjatlar davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishning muayyan bosqichi uchungina foydali bo'ladi. Ularda davlat hokimiyatining fuqarolik jamiyati roliga nisbatan yangicha nuqtai-nazari aks etadi va uchinchi sektor tashkilotlari bilan samarali o'zaro hamkorlik asoslari yaratiladi³. Germaniyada uchinchi sektor fuqarolik jamiyati, faol fuqarolik va birdamlik hissi yaqin-yaqingacha faqat siyosatshunoslarni qiziqtirgan tushunchalar endilikda barcha ijtimoiy-gumanitar soha vakillari tomonidan muhokama qilinmoqda. Buning siri nimada? Nima sababdan bugun uning ahamiyati bunchalik oshgan? Birinchidan uchinchi sektor – fuqarolik jamiyatining tashkiliy infratuzilmasi – uzoq yillar davomida rivojlanuvchi iqtisodning muhim tarmog'iga aylandi. Masalan, birgina Germaniyaning o'zida 1990 yildan 1995 yilgacha u 30% o'sdi. Bundan ma'lum bo'ladiki, uchinchi sektor mehnat bozori uchun alohida ahamiyat kasb etadi. 90 yil o'rtalariga kelib Germaniya aholisining tahminan 2,1 mln. (ish bilan banlarning 5%) notijorat sektorda bo'lgan. Boshqa mamlakatlarga nisbatan Germaniyaning uchinchi sektori o'zining iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra o'rtacha hisoblanadi. Unchalik katta bo'lmagan boshqa G'arb mamlakatlari - Niderlandiya, Irlandiya, Belgiya – bu jihat bo'yicha 10% gacha chiqqan xolos. Sababi davlat va uchinchi sektor o'rtasida bevosita va uzluksiz hamkorlik bu mamlakatlarda Germaniya darajasida rivojlantirilmagan. Germaniyada davlat va uchinchi sektor o'rtasidagi subsidarlik tamoyilining qo'llanilishi beg'araz èrdam bilan chegaralanadi. Iqtisodiy jihatdan Germaniyada uchinchi sektor davlat moliyaviy resurslariga bog'liq. Beg'araz fondlar va ularning davlat tomonidan moliyalashtirilishi uchinchi sektorning davlatga bog'liqligini

³ Сморгунов Л.В. Современная сравнительная политология. Учебник. - М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2002. - 472с.

oshiradi. Va bu jihat ayniqsa boshqa davlatlar bilan solishtirilganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Katta moliyaviy èrdam olishda ifodalanuvchi siyosiy partiyalar va davlatga yaqinlik uchinchii sektor elementlarini fuqarolik jamiyatidan tashqarida bo‘lishiga va kvazidavlat sektoriga kirishiga olib keladi. Biroq uchinchii sektorezgu ishlar homiyligidan iborat emas. Tashkilotlarda o‘tgan vaqt uchun to‘lanmaydigan pul miqdori to‘liq bandlikdagi millionlab odamlarga to‘lanadigan pulga teng bo‘lgan. Jamoatchilik asosidagi faoliyatning manbai bo‘lgan birdamlik hissi fuqarolik jamiyati mavjudligining muhim asosi hisoblanadi. Oxirgi tadqiqotlar ko‘rsatishicha, Germaniyada 14 èshdan katta bo‘lganlarning 34% jamoatchilik asosida (uchinchii sektor tashkilotlarida - 80%) faoliyat olib borib, bunga haftasiga o‘rtacha 5 soat vaqtini sarflaydi.

Oxirgi uch o‘n yillikda Germaniyada fondlar soni tobora oshib bormoqda. Ularning faoliyati qonuniy asos bilan mustahkamlanadi. Ular orasida yangi turdagi fuqarolik èki shahar fondlari bo‘lib, bunda tashkilotlar va alohida jismoniy shaxslar hamkorlik asosida mahalliy miqèsda u èki bu muammoni bartaraf qilish yo‘lida birlashadi. Germaniyaning yangi erlarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 1990 yilda SHarqiy Germaniyada haqiqiy portlash bo‘lgan, bunda 80.000 to 100.000gacha jamiyatlar tashkil topgan. Germaniyada tuzilgan tashkilotlar o‘ziga xos jihati ijtimoiy-siyosiy jihatdan markaziy sohalar – atrof-muhitni saqlash va xalqaro faoliyat jabhasidagi dinamikasi bilan bog‘liq. Uchinski sektor tashkilotlari a‘zolarining tobora oshib borishi uning odamlar hayotiga kirib borganligidan dalolat beradi. Qolaversa, uchinchii sektor ko‘p jihatdan jamiyatning o‘z-o‘zini tashkillashtirish va innovatsiyalarga nisbiy layoqatidan dalolat beradi. YA’ni bu faoliyatdagi yangilik asosan hukumat faollik ko‘rsatmagan sohalarda yuzaga keladi.

b

o

‘

Ùzbekistonda yangi davlat va jamiyat qurish masalasida rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tarixiy tajribasini chuqur o‘rganish natijasida fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi

Ф

á

О

Ð

ó

ý

æ

⁴ Ùzbekiston Respublikasining «Ùzbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari tўgrisida»gi Qonuni.//Ùzbekiston Respublikasining konunlari. 4-son. -Toşkent: Adolat, 1993.-B.155.

Parang: Karimov I.A.. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islokh etishdir.//Ùzbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bulmaydi. T.13.-Toşkent: Ùzbekiston, 2005.-B.181.

b

ò

á

т

1. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalar.
2. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishda NNTlarining o‘rni.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining huquqiy asoslari.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
3. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.
4. Mualliflar jamoasi. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.
5. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Universitet”, 2018. 21 b.t.
6. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.
7. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strany. Grajdanskoe obshchestvo (Uchebnoe posobie) - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar

1.Korrupsiya nima? Ilmiy adabiyotlarda unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Korrupsiya—shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish".

Korrupsiya atamasi lotincha "orruptio" so'zidan olingan bo'lib, pora berib sotib olish, buzilish, ishdan chiqish, axloqiy (ma'naviy) buzilish degan ma'nolarni anglatadi. Odatda mansabdor shaxs tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan, shuningdek, bu bilan bog'liq rasmiy nufuz maqomidan, imkoniyatlar va aloqalaridan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Jamiyatda korrupsiya oddiy xalq vakillarining yuqori amaldorlarga yoxud davlat amaldorlarining o'zaro bir-birlariga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Ushbu salbiy holatning har qanday ko'rinishi jamiyatni halokat yoqasiga olib borishi muqarrardir. Korrupsiyaning tarixi antik davrlarga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston davlatida oddiy xalq vakillari oqsoqollarga va turli darajadagi amaldorlarga sovg'a-salomlar berishgan. Xuddi shunday holatlar qadimgi Misrda ham kuzatilgan: bu erda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy a'yonlarga nisbatan ham o'zboshimchalik va zo'ravonlik ishlatgan hamda qonunbuzarliklarni o'ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelgandi.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisadir. Zero, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi, hukumat tizimi ishdan chiqadi, demokratik institutlarga putur etadi. U saylov jarayonlariga salbiy ta'sir qilib, qonun ustuvorligiga jiddiy ziyon etkazadi. Shu bilan birga, uning ta'siri ostida fuqarolarning ijtimoiy adolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonchi yo'qoladi. Har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biridir. Bizning davlatimiz korrupsiyaning oldini olish va uning ildizlariga barham berish maqsadida ko'pgina tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2003-yil 9-dekabrda BMT ning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolanganligi ham fikrimizning isbotidir.

Respublikamizda ushbu jinoyatga qarshi kurash sohasida maqsadli siyosat olib borilmoqda. Jumladan, ushbu sohada qonunchilik asoslarini takomillashtirish,

davlat organlarining, jamiyatning ochiqligini ta'minlash, axborotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu sohada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalari davlatimiz rahbariyatining diqqat markazidadir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash masalasi qat'iy hisobga olingan. Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o'ylaydi. Ular iymon-e'tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo'lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlari, mahalla-ko'yning yuzini erga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Qonunga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Agar qonun hayotda ishlamasa, uning bir necha varaq oddiy qog'ozdan farqi qolmaydi. SHunday ekan, «korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi», deb o'ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo'ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o'ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o'tkazishimiz, unga qarshi qat'iy kurashishimiz kerak. Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga tuzukroq baho qo'ydirish va shu kabi vaziyatlarda o'zimizni munosib tutishimiz lozim bo'ladi. To'g'ri, hayotda turli holatlar va harakatlarga duch kelamiz. Ba'zida ko'z o'ngimizda qonunlar buziladi, inson huquqi, qadr-qimmatini poymol etiladi. Bunday vaziyatlarda chorasizlikdan odamning boshi gangib qoladi. Lekin, unutmaylik, xalqimizda "Kasalni davolagandan ko'ra uning oldini olgan afzaldir" degan naql mavjud. Jamiyatimizdagi har qanday jarayonga loqayd munosabatda bo'lmaslik barchamizning ustuvor burchimizdir. Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o'zimizdan boshlashimiz darkor. Buning uchun esa shaxsning huquqiy ong va huquqiy madaniyati etarli darajada shakllangan bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir.

2. Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish

odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziy lashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi SHumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur etkazardi. Dunyoning etakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rning oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi.

Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. SHuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma'muriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. YA'ni, sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z hohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi — aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

3. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo davlatlarida jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan korrupsiya xavfiga qarshi kurashishni ta'minlashga qaratilgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar, jumladan:

- Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloqiy kodeksi (Nyu-York, 1996 yil 12 dekabr);
- Korrupsiya bo'yicha jinoiy javobgarlik konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar);
- Korrupsiya bo'yicha fuqaroviy-huquqiy javobgarlik konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 4 noyabr) va mazkur Konvensiyaga qo'shimcha protokol (Strasburg, 2003 yil 15 may);
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003 yil 31 oktyabr) va boshqalar qabul qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003 yil 21 noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 2004 yildan boshlab **“9 dekabr – Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”** sifatida nishonlanmoqda. Ushbu kunda BMTning “Korrupsiyaga qarshi konvensiya”ni tan olgan, a'zosi hisoblangan davlatlarda turli tadbirlar va aksiyalar uyushtiriladi, plakat va varaqalar chop etiladi, shuningdek ommaviy axborot vositalarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasidagi axborotlar faollashadi.

Xalqaro-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik asosida, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratildi.

Birinchidan, O'zbekistonning 2008 yili BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga, 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakat rejasiga qo'shilishi – korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini yaratishda muhim qadam bo'ldi.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat — bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat — bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. YA'ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish —demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan SHvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. YA'ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llanilgan usullar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o'tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu erda byurokratik jarayonlar engillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). SHu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og'irlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy "tozalashlar" o'tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. YUqorida sanab o'tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro'yxatida ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqdi. SHuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyatchi unsurlarning xo'jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug'dirishi, bu esa o'z navbatida, mamlakat uchun ham, jahon hamjamiyati uchun ham nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining alohida turi shakllanishiga olib kelishini keyinchalik BMT tomonidan ham tan olinib, 2003 yil 9 dekabrda Meksikaning Merida shahrida korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida 3 kun davom etgan konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiya davomida 100 dan ortiq davlat tomonidan Korrupsiyaga qarshi halqaro konvensiya imzolandi. Konferensiyaning

birinchi ish kuni (9 dekabr) BMT tomonidan butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash kuni deb e'lon qilingan. Ushbu konvensiyaning qabul qilinishi va kuchga kirish (2003 yil 31 oktyabr) dunyo mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi hamkorligini yangi pog'onaga ko'tardi. Konvensiyada korrupsiyaning rivojlanishi uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa jamiyat uchun xavfli bo'lgan salbiy omillarga qarshi kurashga ulkan to'siq bo'lishi mumkinligiga alohida urg'u berilgan.

2-AMALIY MASHG'ULOT: O'zbekiston Respublikasini BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi"ga qo'shilishi.

Davlat va jamiyatning rivojiga, xalqning adolatga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur etkazadigan xavf – korrupsiya xavfining oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi ishlar Respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Ushbu masalada, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "Korrupsiyaga qarshi kurashdahuquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz. Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak. SHuning uchun har bir davlat idorasida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z ichki dasturlari bo'lishi shart".

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimlari shaxsiy tarkib orasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, jumladan qonunchilik, harbiy va xizmat intizomi, odob-axloq qoidalari va ichki tartibga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan va *BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2003 yil 21 noyabr e'lon qilingan.*

2003 yil 9 dekabrda Meksikada imzolash uchun BMT korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi ochildi. Bosh Assambleya rezolyusiyasida aytilishicha, ushbu xalqaro kunni belgilashdan maqsad, korrupsiya muammosini tubdan tushunish va Konvensiyaning korrupsiya bilan kurashish va uni oldini olish borasidagi ahamiyatidir. Rezolyusiyada ushbu kunni keng nishonlash, ma'lum tadbirlarni

o‘tkazishga da’vat qilish holatlari deyarli yo‘q. O‘zbekiston 2008 yili BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo‘shildi.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki Komissiya tuzilgan hamda Komissiya Reglamenti tasdiqlangan. Reglamentga asosan, Komissiyaning asosiy vazifalari, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Qo‘mitaning tarkibiy tuzilmalari va tegishli davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi №PF-5729-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi tasdiqlangan. Ushbu Farmon va Davlat dasturini bajarish maqsadida, Qo‘mita tomonidan chora-tadbirlar rejasi va Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samaradorlik indikatorlari tasdiqlangan.

Bundan tashqari, Qo‘mitada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha “Ishonch telefoni” ham ishga tushirilgan, Qo‘mita va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiya holatlari bo‘yicha anonim murojaatlar uchun alohida elektron pochta ochilgan. Qo‘mitaning hududiy boshqarmalarida esa anonim qutilar o‘rnatilgan.

Shu bilan birga, Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat Qoidalari va korrupsiya ko‘p uchrashi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari va lavozimlar ro‘yhati tasdiqlangan.

Ushbu qoidalar korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi ichki nazoratni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibini belgilab beradi. Ushbu Qoidalarda keltirilgan talablarni amalga oshirishdan maqsad:

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va uning tizimidagi xodimlarni qasddan yoki qasddan qilinmagan jinoiy harakatlarga tortishga yo‘l qo‘ymaslik;

Qo‘mita va uning tizimidagi xodimlarni jinoiy harakatlarini aniqlash, ularga baho berish, hujjatlashtirish va jinoiy harakatlar tavakkalchiliklarini kamaytirish;

Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga so‘zsiz rioya etishni ta’minlash;

Bundan tashqari, mazkur Qoidalarda korrupsiyaning turlari va shakllariga, sovg‘a berish va sovg‘a olish, lobbistlar faoliyati, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida manfaatlar to‘qnashuvi hamda sahovatpeshalik faoliyatiga tushuntirishlar berilgan;

Tasdiqlangan “yo‘l haritalari”ga muvofiq, ichki Komissiyaning ishchi organi tomonidan muntazam ravishda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Yuristlar malakasini oshirish Markazi,

Toshkent yuridik instituti vakillari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida seminarlar tashkil etilmoqda.

O‘zbekistonning 2008 yili BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga, 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul harakat rejasiga qo‘shilishi – korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini yaratishda muhim qadam bo‘ldi.

Dastavval korrupsiyaning oldini olish bilan bog‘liq qonunchilik bazasini mustahkamlashga qaratilgan Byudjet kodeksi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”, “Elektron hukumat to‘g‘risida” va “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida 2017 yil 3 yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi – davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, yaxlit tizimni yaratish imkonini berdi.

2020 yil 29 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Agentlik:

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O‘z faoliyatini **qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari** asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdordir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi. Prezidentning Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;
- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarning samaradorligini

oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

- jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murossasiz munosabatni shakllantirish;
- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, OAV, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo‘yicha reytingini tuzish;
- normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta’minlash;
- davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etish;
- davlat xizmatiga halollik standarti (“halollik vaksinasi”) va manfaatlar to‘qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko‘maklashish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- byudjet mablag‘lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatning imidjini mustahkamlash va xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish va korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashishning ta’sirchanligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;
- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash.

Farmon bilan Agentlik har yili OAVda e’lon qilinishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruzani tayyorlaydi va uni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Prezidenti va Oliy Majlis palatalariga kiritadi. SHu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro imidjiga zarar etkazuvchi korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi hamda natijalari bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi.

Qolaversa, korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida jamiyat va davlat manfaatlariga etkazilgan zarar to‘liq qoplanilishiga erishish ustidan nazoratni amalga oshiradi. SHuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi Korrupsiyani qabul qilish milliy indeksini tuzishni tashkillashtiradi.

Farmon bilan Agentlikka quyidagi huquqlar berilmoqda:

- byudjet mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni **talab qilish, olish va o‘rganish;**
- o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan o‘rnatilgan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;
- **jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini** ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida **korrupsiya holatini o‘rganish;**
- korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tizimli korrupsiyaning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida qonunchilik, shu jumladan jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq jinoyat ishlari materiallarini o‘rganish;
- o‘rganish va boshqa tadbirlar natijalari bo‘yicha to‘plangan materiallarni **faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan shaxslarga nisbatan qonunga muvofiq choralar ko‘rish, jumladan jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish** uchun huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlariga taqdim etish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha **ma‘muriy surishtiruvlar o‘tkazish;**
- ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida **ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni kiritish;**
- davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga **ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan** korrupsiyaga

oid huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaslik to'g'risida **ogohlantirishlar** hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari to'g'risida **taqdimnomalar** kiritish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlari o'n kun ichida **ko'rib chiqilishi** va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi **shart** qilib belgilanmoqda. Bundan tashqari, Agentlikning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish va tekshirishlar o'tkazish, mutaxassislar ajratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolar uchun majburiy etib qo'yilmoqda.

SHu qatorda, Agentlik xodimlari o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaning sabab va shart-sharoitlarini o'rganish hamda tahlil qilish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ushlab turilganlarni va qamoqqa olinganlarni saqlash joylari, jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirishga va hujjatlar bilan tanishishga haqli etib belgilanmoqda. Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy ravishda Agentlik bilan kelishilishi lozimligi qayd etilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari **O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi** va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etilmoqda.

Farmon asosida Agentlik Milliy kengashning ishchi organi etib belgilandi. Agentlikni xodimlar bilan to'ldirish konkurs asosida xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshiriladi. SHu bilan birga, Agentlikka birinchi marta ishga qabul qilinadigan xodimlar ishdan ajratilgan holda Bosh prokuratura Akademiyasida **maxsus o'quv dasturlari** bo'yicha ta'lim oladi.

Agentlik zimmasiga:

- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining SHarqiy Evropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash;
- BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori** vazifa va vakolatlari yuklatilmoqda.

- Agentlik davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi “**E-Anticor.uz**” elektron platformasini ishlab chiqadi. SHu bilan birga, korrupsiya holatlari haqida Agentlikni xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus **mobil dastur** yaratiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha “**Yo‘l xaritasi**” ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha “**Yo‘l xaritasi**” ishlab chiqiladi.

Aytish joizki, ushbu hujjatni ishlab chiqish jarayonida tegishli davlat organlari bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi xalqaro tajribani o‘rganishga oid tahlil va takliflari bilan ishtirok etdi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo bo‘yicha 150 dan ortiq antikorrupsion tuzimlar faoliyat yuritmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlar faoliyatini yuritishda Gonkong, Singapur, Fransiya, Ruminiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Finlyandiya, Norvegiya davlatlari katta tajribaga ega.

Ahamiyatlisi, mazkur hujjat korrupsiya bilan samarali kurashayotgan davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Mazkur hujjatning qabul qilinishi esa normativ-huquqiy va institutsional bazani yanada takomillashtirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmini joriy etishga yordam beradi.

3-AMALIY MASHG‘ULOT: Korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari

2017 yil 2 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752 - qarorida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyasini tuzilishi, mazkur Komissiya to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlanishi, Mazkur Nizomda Komissiyaning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo‘yilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish ishlarini tizimli ravishda olib borilishiga shart-sharoitlar yaratadi va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini samarali ta’minlanishga xizmat qiladi.

Mazkur Qonunning 8-moddasiga muvofiq: Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika Idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilot-larning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksal-tirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirili-shini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samarador-ligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda, hokimlar va ularning turli darajadagi xodimlari, boshqa davlat organlarining xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid jinoyat sodir etilayotganligi hamda pora bilan qo'lga tushayoganligi to'g'risida ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida berilayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari davlatning vakolatli organlari tomonida tizimli ravishda izchil borilayotganligini ko'rsatadi.

Moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan xabarda davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan:

- 2018 yil 3 choragida hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning topshiriqlari hamda jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida byudjet tashkilotlarida 1334 ta davlat moliyaviy nazorat tadbirlari o'tkazilganligi;

- o'tkazilgan nazorat tadbirlaridan 1111 tasida moliyaviy intizomga rioya qilinmay sarflangan mablag'lar 16,6 mlrd. so'mni, shundan kamomad va

o'zlashtirishlar 4,5 mlrd so'mni, noqonuniy xarajatlar 12,1 mlrd so'mni tashkil etganligi;

- shuningdek, hisobot davrida byudjet intizomini buzgan byudjet tashkilotlarining 20 nafar rahbar va mansabdor shaxslari 13,9 mln. so'm miqdorida ma'miy javobgarlikka tortilganli ma'lum qilingan.

Mazkur Qonunning 14-moddasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi belgilangan bo'lib, unga muvofiq, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Ushbu Qonunning 15-moddasiga binoan ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi quyidagi tarzda mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra ommaviy axborot vositalari:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Ekspertlarning fikricha qaysi sohada korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, ushbu soha rivojlanmayotganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi yillarda, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev tomonidan korrupsiya illati yillar davomida tomir otganligi to‘g‘risida o‘zining chiqish va maruzalarida korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb masala ekanligini takror-takror qayd etib kelmoqda.

SHu bois ham, davlatimiz rahbari o‘zining saylov oldi ma‘ruzalaridan birida ushbu muammoga alohida e‘tibor qaratib, “bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifamiz - mamlakatimiz rivojiga to‘siq bo‘layotgan yovuz illat, ya‘ni korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikni oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat” deb ta‘kidlagan edi.

“2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy hoysasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlarga uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo‘lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘lidir. SHuning uchun bu borada ta‘sirchan choralarni nazarda tutadigan dastur ishlab chiqimiz zarur”.

Bizga ma‘lumki, soliq stavkalarini pasaytirilishi yoki ayrim soliqlarning bekor qilinishi bilan byudjetga tushadigan tushumlar albatta kamayadi. Bu masalani soliq ma‘murchiligi orqali bartaraf etish mumkin, ya‘ni shu vaqtgacha faoliyat yuritayotgan “yashirin” iqtisodiyot jamiyatda qonuniy iqtisodiyotga aylanishi natijasida insofli, halol soliq to‘lovchilarni soliq qonunchiligida rag‘batlan-tirishni huquqiy jihatdan mustahkamlash tadbirkorlar, biznesmenlar faoliyatini yanada rivojlanishiga hamda yalpi milliy daromadda xususiy mulkning ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ko‘pchilik xalqaro ekspertlar tomonidan har bir davlat va mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini rolini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish va ular bilan davlat organlari hamkorligini ta‘minlash demokratik huquqiy davlatning asosiy shartlaridan biri ekanligini qayd etadilar.

Biz shuni qayd etishimiz lozimki, ilgari yurtimizda korrupsiya muammosi to'g'risida so'z ochish deyarli mumkin emas edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim masala sifatida hal etilishi lozimligi shundan iboratki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida mazkur vazifani echimini topish davlat rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham korrupsiyaga qarshi ta'sirchan mexanizmlarni qo'llash muhimligi qayd etilgan edi.

Mamlakatimizda yurtboshimiz rahbarligida davlatning mazkur illatga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan bo'lib, ularni real hayotga tatbiq qilish uchun tizimli ravishda ishlar davlat organlari tomonidan olib borilayapdi.

Bugungi kunda, xalqaro sub'ektlar hamda jamoat arboblari tomonidan tan olingan mamlakatimizda tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarning yo'l xaritasi hisoblangan Harakatlar strategiyasida mazkur yo'nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuqorida qayd etilgan qonun va qonun ijrosini ta'minlashda fuqarolarning faol ishtirok etishini ta'minlash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni rivojlan-tirishga xizmat qiladi.

Albatta, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish va eng muhimi korrupsiyaning oldini olish ishlarini tashkil etishga qaratilgan mazkur maqsadlarni ro'yobga chiqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari sifatida fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari-bilan davlat idoralari o'rtasida hamkorlikni zamon talablari darajasida tashkil etish, huquqiy targ'ibot samaradorligiga erishish, jamiyat a'zolarining huquqiy bilim va saviyalarini yanada oshirishni yo'lga qo'yish korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijrosini ta'minlashda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning adolat qaror topgan jamiyatda yashashi uchun mas'ul bo'lgan davlat idoralari o'z faoliyatlarini bugungi kun talablari asosida tashkil etmoqdalar, ammo, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlariga har bir fuqarodan ushbu masalaga o'zining fuqarolik burchi sifatida yondoshib bu ishlarga o'z hissalarini qo'shishi lozimligini qayd etish joiz.

Bu ishlarni amalga oshirishda eng muhim masala bizning fikrimizcha yurtdoshlarimizda korrupsiyaga, umuman olganda har qanday ko'rinishdagi qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik kayfiyatini muntazam ravishda shakllantirish talab etiladi.

Jamiyatda qonunbuzarlikni sodir etilishida ayniqsa korrupsiyaga doir jinoyatlarni sodir etilishida ko‘pincha fuqarolarimizning loqaydligi, o‘z haq-huquqlarini bilmasligi hamda ayrim tadbirkorlik sub‘ektlari rahbarlarining yuridik bilimlarini juda past darajada ekanligi ham sabab bo‘lmoqda. Bunga erishish uchun davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bu sohada hamkorlikni bugungi kun talablari darajasida tashkil etishi zarur bo‘ladi.

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy rivojlanishlaridan bizga ma‘lumki, davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bu sohada ishlarni tashkil qilishda “Ijtimoiy sherikchilik”, “Jamoatchilik nazorati”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari” hamda “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar ijrosini jamiyatda ijrosini ta‘minlashda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari hamkorliklarini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish orqali u yoki bu mansabdor shaxsning faoliyatini xolisona baholash orqali amalga oshirishni yo‘lga qo‘yilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni o‘ziga xos jihatlari va bu sohaning tashkiliy-amaliy xususiyatlari ijtimoiy sheriklik shartnomasida aniq belgilab qo‘yilishi korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarador-lishigini oshirishga xizmat qiladi.

Demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri **birinchidan**, bu-fuqarolar ustidan bosim o‘tkazish emas, balki, fuqarolarning konstitutsiyada va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va manfaatlarini amalga oshirishda ularga yordam berishga xizmat qiladigan fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi bo‘lsa, **ikkinchidan**, jamiyatda ularning faoliyatini samarali ishlashi uchun davlat tomonidan har tomonlama shart-sharoitlar yaratilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Bizga ma‘lumki, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi va mazkur qonunda fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratining asosiy sub‘ektlarining biri sifatida belgilanishi o‘z navbatida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tubdan takomillashtirish asosida rivojlantirish va ularning jamiyatdagi rolini oshirish vazifasini qo‘ydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutgan Davlat rahbarining 2018 yil 5 maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik

jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi maxsus Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Prezident huzurida davlatning va fuqarolik institutlarining mamlakatni yanada jadal har tamonlama rivojlantirishga qaratilgan jamiyatdagi barcha harakatlarni hamda zamonaviy demokratik institutlarni ochiq-oshkora maydon sifatida birlashtiruvchi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Maslahat kengashi tashkil etilganligi ham ushbu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, har bir davlat organi huzurida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **jamoatchilik kengashi** faoliyatlarini yanada yuksaltirish uchun mazkur jamoatchilik kengashi a'zolariga nodavlat notijorat tashkilotlari vakilari hamda kasaba uyushmasi faollari kiritish orqali har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yaxshi natija berishi mumkin.

SHuningdek, har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab olinishi mazkur sohalarda korrupsiyani oldini olishga xizmat qiladi.

Har bir davlat organi huzurida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va real hayotga joriy qilishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamda boshqa idoralar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, kadrlarni tanlash, ayniqsa, rahbar xodimlarni tayinlashda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'yicha bilim darajasini testlar orqali o'rganishni joriy qilish davlat organlari faoliyatida shafoflik va ochiqlikni ta'minlashga olib keladi.

Bugungi kunda, davlat rahbarimiz tomonidan bir qator sohalarda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi jumladan:

- "O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni, ushbu qonun qabul qilinishidan oldin bu sohani 30 ortiq normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi oqibatida davlat xaridlarining yaxlit tizimi mavjud emasligi natijasida ko'p bosqichli kelishlar hamda takrorlovchi tartiblar ayrim hollarda korrupsiyaga sharoit yaratilganligini ko'rish mumkin. Mazkur qonun davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, davlat xaridlari ochiqligi hamda shafofligini ta'minlash orqali bu sohada korrupsiyani oldini olishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida

belgilangan vazifalarni bajarilishiga O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni hamda davlat xavfsizligini ta‘minlashning sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tishga xizmat qiladi;

- Prezidentimizning 2018 yil 19 sentyabrdagi “Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni esa, yuqorida qayd etilgan taqiqlangan guruhlar va tashkilotlarga adashib kirib qolgan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lgan, o‘z qilmishining huquqqa xilofligini anglab etgan va tuzalish yo‘liga o‘tgan fuqarolarga Vatanga, oilasi bag‘riga, tinch hayotga qaytish imkonini berilganligi hamda insonparvarlik prinsiplariga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir;

- O‘zbekiston Respublikasining harakatlar strategiyasiga muvofiq valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizm-larini joriy qilinishi natijasida investitsiya va ishbilar-monlik muhitini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirishni rag‘batlantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish borasida izchil tadbirlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan davlatimiz rahbarining 2017 yil 2 sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ushbu yo‘nalishdagi ayrim noqonuniy operatsiyalarga hamda bu sohada mavjud bo‘lgan korrupsiyaviy holat hisoblangan jumladan, valyuta siyosatiga ma‘muriy aralashuvlarga barham berilishiga erishishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur Farmonning 1 - bandiga muvofiq 2018 yil 1 fevraldan boshlab O‘zbekiston Respublikasiga oziq-ovqat tovarlarini import qilish bo‘yicha ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga taqdim qilingan individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar, boshqa preferensiyalar bekor qilinganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan respublikaga oziq-ovqat tovarlarni import qilish bo‘yicha ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar, shuningdek, boshqa prefensiyalar taqdim etishni nazarda tutuvchi qorolarni qabul qilinishi taqiqlanganligi ushbu band talablari buzilgan hollarda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan jinoiy javobgarlikkgacha bo‘lgan javobgarlikka tortilishi belgilab qo‘yilganligi mamlakatning oziq-ovqat bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda quyidagi masalalarni e‘tiborga olish lozim deb hisoblaymiz:

korrupsiya va uning oqibatlarini jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'layotganligi, uning ijtimoiy xavflilik darajasi sodda va tushunarli tilda huquqiy jihatidan sharhlangan holda jamoatchilikni xabardor qilish;

har bir sohada korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish orqali qonunchilikni hamda ichki tartib qoidalarni takomillashtirish bo'yicha asosli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

har bir davlat organida o'z xodimlarini korrupsiya holatlaridan ogohlantirish va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmni ishlab chiqish va uni real hayotga tadbiriq qilish chora-tadbirlarini belgilash;

har bir sohada korrupsiyani oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini ta'minlash orqali korrupsiyaga sabab bo'luvchi holatlarga barham berishga erishish;

jamiyatda korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan ya'ni korrupsionerlarga nisbatan jazo muqarrarligi mamlakatimizda qonun ustuvorligi asosida ta'minlanyotganligi xususida ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda keng yoritib borishni yo'lga qo'yish;

har bir sohada korrupsiyani oldini olish ishlarini tashkil etishga keng jamoatchilikni, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish va ular faoliyatini rag'batlantirish korrupsiyaga qarshi ishlarni samaradorligini oshirish;

ijtimoiy-iqtisodiy sohada faoliyat yuritayotgan davlat organlari tizimida ma'muriy-byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni yanada soddalashtirish;

-davlatning vakolatli organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini yanada takomillashtirilgan holda mustahkamlash;

davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning nazorat qilishning masofaviy shakllarini keng joriy etish asosida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida taklif va tavsiyalar berish;

Har bir sohada o'zining xususiyatidan kelib chiqib, "Axloq-odob qoidalari"ni tasdiqlash, mazkur qoidalarning alohida bo'limida korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarni belgilab qo'yish;

Har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarni tashkil etish xodimlarning bu sohadagi javobgarliklarini ichki lokal hujjatlarda aniq belgilab qo'yishda yuridik xizmat rolini oshirish korrupsiyani oldini olish ishlarini samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

V. KEYSLAR BANKI

1. “Qonun hukumron bo‘lgan joyda erkinlik ham bo‘ladi.” Ushbu jumlar muallifi kim?
2. Qachonga kelib korrupsiya xalqaro muammoga aylanadi?
3. Qaysi davlat poraxo‘rlikka qarshi kurashgan birinchi davlat hisoblanadi?
4. BMT Bosh Assambleyasining 1990 yil korrupsiya muammolari yuzasidan o‘tkazilgan mintaqalararo seminar qaerda utkazilgan?
5. Korrupsiyaga qarshi kurashishda NNTlarning o‘rni qanday?
6. Korrupsiyaga karshi kurashish tizimining huquqiy asoslarini tushuntirib bering?
7. Korrupsiya tushunchasining paydo bo‘lishi va evolyusiyasini moxiatini yoritib bering?
8. Korrupsiya tushunchasi va uni tadqiq etishdagi yondashuvlarni asoslab bering?
9. Korrupsiyaga qarshi kurashda idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?
10. Korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar dekloratsiyasi ahamiyati qanday?

VI.GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Abolitsionizm	(lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQSHda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitsionist deb atalgan.	(lat. cancellation) a mass action aimed at the abolition of a law. Participants in the movement, which began at the end of the XVIII century and in the first half of the XIX century in the US to free the Negroes from slavery, were called – the abolitionist.
Avtonomiya	(yunon. autos+nomos- o‘zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma’muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.	(Greek. autos+nomos-self+Law); 1.granting self-government powers to territorial-national structures (region, country) at the level of a single state; 2.Ma Muri - territorial unit; 3.The right to self-government in the activities of some organs (farm, state, party, etc.).
Avtonomiya	(yunon. autos+nomos- o‘zi+qonun); 1.YA gona davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma’muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.	(Greek. autos+nomos-self+Law); 1.Granting self-government powers to territorial-national structures (region, country) at the level of a single state; 2.Ma Muri - territorial unit; 3.The right to self-government in the activities of some organs (farm, state, party, etc.).
Agregatsiya	(lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya’ni turli munozaralar va	(lat.) non-governmental and public organizations aggregate certain interests,

	<p>muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg'unlashtiriladi va ular o'rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko'riladi</p>	<p>that is, through various discussions and discussions, different interests are harmonized and a certain system of relations is formed between them. In this process, the main and important interests are selected and measures and measures are taken to satisfy them</p>
Advokatura	<p>huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. O'zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan</p>	<p>the legal institution includes independent, volunteer, professional associations of persons engaged in advisory activities. Your own.Usage provides legal assistance to citizens, foreign citizens, stateless persons, enterprises, institutions, organizations. The law of the Republic of Uzbekistan on advokatura was adopted on December 27, 1996</p>
Adliya	<p>(arab.-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama</p>	<p>(Arabic.- Justice) - a term denoting the entire set of judicial institutions, their activities for the implementation of Justice, as well as the judicial office</p>
Alarmizm	<p>intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamonaviy g'oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yaroviy, ekologik v.x. – borasida ogohlantiradi</p>	<p>intellekt modern ideological flow uniting professionals and experts. It is a global problem that poses a threat-ecological, environmental v.the x. - warn ontiradi</p>

Amnistiya	jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi	the release of persons guilty of a crime from criminal liability in full or in part, as well as the removal of conviction from persons who have previously passed the sentence established by the court. The amnesty act has a normative nature, that is, it applies to all persons who meet the requirements established by the amnesty act
Anaxronizm	(yunon. ana-orqaga, chromos-vaqt, zamon); yanglish holda bir davrdagi voqea yoki hodisalarni boshqasiga almashtirib qo'yish	(Greek. ana-back, chromos-time, time); to replace events or events of one period with another without error
Artikulyasiya	(lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiyruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lumsiyosiy maqsadlar va talablarga aylantirish jarayonini anglatadi	(lat.) non-governmental and public organizations mean the process of transforming the views, social experiences and expectations of the individual and social groups into clear and informed goals and requirements
Bozor iqtisodiyoti	tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir	it is an economic system that is organized and managed in accordance with the laws of commodity production, turnover and monetary circulation
Bozor mexanizmi	bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni	it is the support and tools that ensure the regulation of the functioning of the market economy and the

	ta'minlaydigan dastak va vositalardir	harmonization of economic processes
Vatanparvarlik	Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhaddari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat	Freedom and prosperity of the motherland, inviolability of its borders, self-sacrifice for the protection of its independence, the strength, knowledge and experience for the honor, glory, happiness of the Native people is a human feeling, which symbolizes the most sacred and noble activity in the world as a gift of all life. Patriotism is a virtue inherent in Persons with a deep respect for the history and fate of the native land, people, capable of showing examples of self-sacrifice in the interests of Vatan
Vijdon erkinligi	fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi	the right of citizens to the religion they want or not to any religion
Gumanizm	(insonparvarlik) – tenglik, adolat, o'zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish g'oyalari singdirilgan dunyoqarash	(humanism) – integrated worldview of ideas of equality, justice, mutual respect, pursuit of human dignity, care for the well-being of people
Demokratik institutlar	jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi	democratic principle in the life of societyillarni a complex of organizations and structures that serve to find a decision

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

- 1.David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
- 2.English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
- 3.H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
- 4.H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
- 5.Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
- 6.Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
- 7.Belogurov A.YU. Modernizatsiya protsessi podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
- 8.Boris Kapustin Grajdanstvo i grajdanskoe obshchestvo. — M.: “Vysshaya shkola ekonomiki”. 2011. — 224 s.
- 9.Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. — Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
- 10.D.Dj.Grin Возвращение в гражданское общество: социальное обеспечение без участия государства. — M.: “Новое издательство”. 2008, — 220 s.
- 11.Djim L. Koen, Endryu Arato Гражданское общество и политическая теория. — M.: “Вес мир”, 2011. — 784 s.
- 12.Djon Kin Демократия и гражданское общество. — M.: “Progress -Traditsiya”, 2001. — 400 s.
- 13.J.Mavlonov Коммуникативные основы деятельности институтов гражданского общества: тенденции и инновации (Монография) - Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. 12 b.t.
- 14.Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. — T.: Baktriya press, 2015.
- 15.Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.E.Ibraymov. — Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
- 16.Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim

- texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
- 17.Li Kan YU Из третьего мира - в первый. История Сингапура. 1965-2000. – М.: Mann, Ivanov i Ferber, 2016. – 420 s.
 - 18.M.Bekmurodov va boshq. Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T. : “G‘ofur G‘ulom NMIU”. 2017, - 236 b.
 - 19.Mохammad Хотами Islam, Диалог и гражданское общество. – М.: “ROSSPEN”. 2001. – 242 s.
 - 20.Mualliflar jamoasi. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.
 - 21.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
 - 22.Образование в цифровую эпоху: монография / Н. Ю. Игнатова; М-во образования и науки РФ; ФГАОУ ВО «УрФУ им. первого Президента России Б.Н.Элсина», Нижне тагил. технол. ин-т (фил.). – Нижний Тагил: НТИ (филиал) UrFU, 2017. – 128 s.
http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
 - 23.Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
 - 24.R.Xasanov, A.O‘tamurodov Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (O‘quv qo‘llanma) – T.: 2016. 14 b.t.
 - 25.Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. Книга 16 / О.К. Асекретов, Б.А. Борисов, Н.Ю. Булгакова и др. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
 - 26.Трудным путём демократии: Процесс государственного управления в США (Перевод с англ. А.Н.Кулик). – М.: “ROSSPEN”, 2006. – 656 s.
 - 27.U.Bo‘taev Jamiyat barqarorligi: O‘zbekiston tajribasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2017. 11.9 b.t.
 - 28.Уил Кимлика Современная политическая философия. Введение. – М.: “Высшая школа экономики”, 2013. – 585 s.
 - 29.Usmonov B.SH., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
 - 30.O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Universitet”, 2018. 21 b.t.
 - 31.O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. – T.: “Turon-Zamin-Ziyo”. 2017. 23 b.t.
 - 32.O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati: G‘oyalar evolyusiyasi (Sharq va G‘arb mutafakkirlari talqinida). Lotin yozuvida. – T.: “Adabiyot uchqunlari”,

2018. – 96 b.

33. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.

34. Хакимов Н.Х., Садилов А.К. Стратегия развития страны. Гражданское общество (Учебное пособие) - Т.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.

IV. Internet saytlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.

2. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

3. [www. Ziyonet. Uz](http://www.ziyonet.uz)

4. Открытое образование. <https://openedu.ru/>

5. <https://foxford.ru/wiki/obshchestvoznaniye/grazhdanskoe-obshchestvo>

6. <https://www.linguee.com/russian-english/translation>

7. https://enc.for.uz/w/index.php?title=Fuqarolik_jamiyati&variant=uz-cyrl

8. <http://www.uzbekembassy.ir/Development.aspx>

9. <https://icscentre.org/tag/civil-society/>